

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMLI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

Ko'charov Jamshid Qulnazarovich

**QARSHI SHAHRINING XVIII ASR IKKINCHI YARMI
XX ASR BOSHLARIDAGI TARIXIDAN**

**5A220201 – Vatan tarixi mutaxassisligi bo'yicha magistirlilik
darajasini olish uchun**

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga berildi
Ilmiy rahbar:

prof. Nuriddinov E.

“O'zbekiston tarixi”
kefadra mudiri:

prof. G'afforov Sh.S.

Tarix falsafa
fakulteti dekani

prof. G'afforov Sh.S.

Samarqand 2008 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3-12
I.bob. XVIII asr oxiri - XIX asr birinchi yarmida Qarshi shahrida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat	13
1.1. Mang'itlar sulolasining Qarshi bekligida olib borgan boshqaruv siyosati.....	13-21
1.2. Mang'it hukmdorlari davrida Qarshi bekligida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohadagi o'zgarishlar.....	22-45
II.bob. XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Qarshi shahri.....	46
2.1. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olishini va Qarshi bekligida mustamlakachilarga qarshi ozodlik harakatlari.....	46-56
2.2. Qarshi shahri XX asr boshlarida	57-65
Xulosa	66-67
Foydalanilgan manba va adabiyotlar	68-71
Ilova	72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida jamiyat a'zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy ruhda tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanini ahamiyati tobora oshib bormoqda. Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab xalqning tarixiy xotirasini tiklash, tarix faniga doir tadqiqotlarni har tomonlama takomillashtirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezident I.A.Karimov 1998 yil yozida bir guruh yetakchi tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvida ta'kidlaganidek, «...o'z tarixini bilgan, u bilan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur»!¹

Hozirgi davrda o'zbek davlatchiligi tarixini yangidan, tarixiy haqiqatni yozish asosida to'laqonli holatda tiklash va xalqimizga yetkazish tarixchi olimlarni oldiga turgan dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda yurtboshimizning quyidagi fikrlari ayni haqiqatdir: «Mustaqillikka erishish davri haqida eski tuzum inqirozga duchor bo'lib, sovet ittifoqi parokandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin tus olgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat, o'zligimizni anglash va toptalgan milliy g'ururimizni tiklashga qaratilgan intilish kuchayib borgan, Vatanimiz mustaqilligini qo'lga kiritish qanday sharoitda kechgani haqida yaxlit, yagona va xolis ko'z bilan qarab baho beradigan jiddiy tahlil-tadqiqot hozirgacha amalda yo'qligini afsus bilan aytishga to'g'ri keladi»².

O'zbekistonning har bir viloyati tarixini ilmiy asosda o'rganish yangi ma'lumotlarni fanga joriy etish orqali uni boy tarixi yaxlit majmuasini yaratish mumkin. Ana shunday salohiyatli viloyatlardan biri Qashqadaryo vohasi Vatanimiz tarixida alohida o'rin tutgan. Nafaqat voha, balki Buxoro

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7-том, Т.: «Ўзбекистон», 1999, 149-бет.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Т.: «Ўзбекистон», 2007, 3-4 бет.

xonligida ham nufuzli o'rin tutgan Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlaridagi tarixiga doir muammolar yetarli darajada o'rganilmagan. Bu borada to'plangan ma'lumotlarni qaytadan ko'rib chiqish, tanlangan mavzuga yangi nazar bilan qarash xolisona baho berish va haqqoniy yoritishni taqozo etadi.

Qashqadaryo vohasi, jumladan, Qarshi shahrining qadimgi va o'rta asrlar tarixi bo'yicha ma'lum tadqiqotlar amalga oshirilgan, ammo mang'itlar sulolasi davri, ya'ni XVIII asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlaridagi tarixi nisbatan kam o'rganilgan. Vaholanki, Buxoro xonligining siyosiy, strategik va iqtisodiy jihatdan muhim sharqiy hududida joylashgan Qarshi shahrini bu davrdagi tarixini o'rganmasdan turib, shu davr O'zbekiston tarixiga tegishli ko'pgina masalalarni to'liq yoritish mumkin emas. Bu o'z navbatida, tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydigan muhim omillardan biridir. Shubhasiz, Qarshi shahrining O'zbekiston tarixida o'ziga xos o'rni mavjud. Muhim savdo yo'llari, iqtisodiy va madaniy aloqalar tutashgan hududda joylashganligi bois bu hududda turli tarixiy jarayonlar kechgan.

Qarshi shahrini geografik jihatdan qulay muhim savdo yo'lida joylashganligi, Buxoro xonligini qo'shni-Afg'oniston, Eron kabi davlatlar bilan har tomonlama aloqalar olib borishga imkon bergan.

XVIII asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida, ya'ni mang'itlar sulolasi davrida Buxoro xonligida savdo sezilarli rivojlangan bir pallada Qarshi shahri sharqiy va g'arbiy Buxoro shaharlarini bog'lovchi ko'prik vazifasini o'tagan. Ayni paytda, Samarqand, Toshkent shaharlarini, Farg'ona vodiysini yuqorida qayd qilingan mamlakatlar bilan olib boriladigan iqtisodiy va savdo aloqalari ham aynan shu shahar orqali o'tganligini ta'kidlash joiz. Shuningdek, shahar harbiy strategik jihatdan muhim hududda joylashganligi tufayli Rossiya imperiyasining harbiy diqqat marqazida bo'lib kelgan.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, Qarshi shahri, nafaqat Buxoro xonligida balki, butun O'rta Osiyo mintaqasida o'zining alohida iqtisodiy o'rniga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Anna shu qulay strategik mintaqaning XVIII ikkinchi yarmi-XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixiy davri O'zbekiston tarixini dolzarb muammolari tarkibiga kiradi, chunki Qarshi shahrining tadqiq etilayotgan davrlaridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga doir tarixi maxsus ishlab chiqilib va bir tizimga keltirilib o'rganilmagan.

Tadqiqotning o'rganilish darajasi. Mazkur mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va chop etilgan asarlarni davrlarga qarab quyidagi uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1.Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida chop etilgan adabiyotlar;

2.Sovetlar davrida olib borilgan tadqiqotlar va nashr etilgan adabiyotlar;

3.Mustaqillik yillarida olib borilgan izlanishlar va chop etilgan adabiyotlar.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va Angliyaning rasmiy va harbiy doiralari vakillari bayon etgan esdaliklar, harbiy hisobotlar hamda shu davrda bitilgan tarixiy asarlar qatoriga Ye.K.Meyendorf, A.Borns, P.I.Demezov, P.S.Savelev, K.F.Butenov, N.Xanikov, H.Vamberi, M.N.Galkin, V.V.Krestovskiy, M.A.Terenev, D.N.Logofet, N.Maev, B.Litvinov³ va boshqa mualliflarning asarlarini kiritish mumkin.

³ Мейендорф Е.К., Путешествие из Оренбурга в Бухару.-М., 1975; Борнс А. Путешествие в Бухару в 1831, 1832 и 1833 году в 3-х томах.-СПб.:Тип. Демезон П.И. Записки о Бухарском ханстве.-М., 1983; Савелев П.С.Бухара в 1835 году//.-СПб., 1836; Бутенов К.Ф. Результат метеорологических наблюдений на пути из Оренбурга в Бухару во время пребывания в ней 1841-1849 гг.-СПб., 1843; Хаников Н. Описание Бухарского ханства.-СПб., 1843; Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии.СПб., 1865; Галкин М.Н. Краткие очерки Бухарского ханства.-СПб., 1890; Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. СПб., 1887; Терентев М.А. История завоевания Средний Азии. Т.1-III.-СПб., 1906; Ўша муаллиф. Россия и Англия в Средний Азии.СПб., 1876; Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом.-СПб., 1873; Маев Н. Очерки Бухарского ханства.-СПб., 1879; Ўша муаллиф. Город Карши// Туркестанские ведомости.1879, №24-25; Литвинов Б. Карши// Туркестанские ведомости.1910, №114-116.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan va boshqa ko'pgina asarlar ko'proq hisobot tarzida yozilgan bo'lib, ularda asosan Buxoro amirligining siyosiy va iqtisodiy ahvoli haqida ancha keng ma'lumotlar berilgan. Ushbu davr tadqiqotlarining asosiy qismida Buxoro amirligi, xususan Qarshi bekligining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayoti, uy-joylar, bozorlar, ko'chalar, masjid-madrasalar va aholining etnik tarkibi haqida ham to'xtab o'tiladi.

Shu bilan birga ayrim mualliflar harbiy masalaga ko'proq e'tibor qaratgan holda, vo'ha shaharlariga boruvchi yo'llar, mustahkamlangan ayrim aholi maskanlari, qo'rg'onlarning tuzilishi haqida ma'lumotlar to'plangan bo'lib, bu ma'lumotlar Qashqadaryo tarixining turli sohalariga doir tadqiqotlarga manba sifatida qo'llanilgan⁴.

1916 yilda esa J.Kastane va P.A.Ziminlar Qashqadaryo vohasining ayrim hududlarida tadqiqotlar olib borishib, Qarshi shahrining qadimiy o'rni, shahar qal'asi qoldiqlari, Zakhoki Maron, Shulluktepa yodgorliklaridagi kuzatuvlari haqida hamda shaharning XIX asrdagi tuzilishi, savdo va iqtisodiy hayotiga to'xtalib o'tadi⁵.

Mavzu tarixshunosligining ikkinchi guruhiga doir, ya'ni sovetlar davrida yaratilgan asarlar ichida akademik V.V.Bartold qalamiga mansub: «Turkistonning sug'orilish tarixiga doir» kitobi alohida o'rin tutadi. Bu kitobning VIII bobi «Qashqadaryo» deb nomlanadi va unda vo'ha haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi⁶.

XX asrning 20 yillarida yaratilgan adabiyotlardan yana biri V.L.Vyatkinning Qarshi okrugi, unda qo'shin tashkil etilishi masalalariga bag'ishlangan asari bo'lib, unda muallif 1800-1803 yillar voqealari bayonida, shuningdek, amir Haydarning Qarshi hokimi Hakimbekka yozgan

⁴ Костенко Л.Ф. Туркестанский край в 3-х т.-СПб., 1880; Абаза К. Завоевание Туркестана.-СПб., 1902; Гребнев А. Осада и штурм среднеазиатских крепостей и укрепленных пунктов.-СПб., 1886; Масалский В.И. Туркестанский край.-СПб., 1913.

⁵ Кастане Ж.А. Археологическая разведка в западных частях Бухары//Протокол Туркестанского кружка любителей археологии (ПТКЛА). Вп.4.-Т., 1917; Зимин Л.А. Нахшаб. Несеф. Карши. Их история и древности//В.В.Бартольд Туркестанские друзья, ученики и почитатели.-Т., 1927.

⁶ Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. Соч. В 9 т.-М., 1965. Т. III; Ёша муаллиф. История Туркестана Соч.-М., 1963. Т. II; Ёша муаллиф. История культурной жизни турецких народов Средней Азии.-М., 1968.

maktublari asosida voha shaharsozligining ayrim jihatlariga aniqlik kirituvchi ma'lumotlarni keltirib o'tgan⁷.

Mavzuni o'rganishda Buxoro xonligining iqtisodiy hayoti masalalariga bag'ishlangan asarlar ham katta ahamiyatga egadir. Bunday asarlar jumlasiga yozma manbalar tahlili asosida yozilgan M.Abduraimovning asarlarini kiritish mumkin⁸.

XX asrning 60-70 yillariga kelib voha tarixiga bag'ishlangan izlanishlar yana kuchaydi. Bu davrda S.K.Kabanov, O.A.Suxareva, I.I.Umnyakov, G.A.Pugachenkova, M.K.Rahimov, Ye.M.Peshchereva, B.D.Kochnev, L.Yu.Mankovskaya, T.Abdullaev, R.Mukminova va boshqalarning tadqiqotlari chop etildi, shuningdek, S.M.Zaxarov, A.Choriev, M.Ochilov, S.M.Zaxarov va A.Sobirjonovlarning⁹ asarlarida ham shahar tarixiga doir ma'lumotlar uchraydi. 1973 yilda O'z R FA Arxeologiya institutining Qashqadaryo ekspeditsiyasi o'z faoliyatini boshlab qator tadqiqotlar e'lon qilindi¹⁰.

Biroq sovet rejimi davridagi tarixchilar o'z asarlari orqali juda katta hajmdagi ashyoviy (faktik) materiallarni ilmiy muomalaga kiritdilarki, buugngi zamonaviy tanqidiy ko'z bilan nigoh tashlab, ularni qayta baholash va talqin qilish mumkin.

⁷ Вяткин В.Л.Каршинский округ, организация в нем войсва и события в период 1215-1217(1800-1803) годов//Известия среднеазиатского отделения Российского географического общества. Вп. ВИИИ,-Т., 1928.

⁸ Абдураимов М.А.Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах эмира Хайдара.-Т.,1961; О'ша муаллиф. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI-XIX вв.Т.I-II.:Fan,1966,1970.

⁹ Кabanov C.K. Археологические разведки в верхней части долины Кашкадарья//ТР.Института истории и археологии Вп.7.-Т.,1955; Ўша муаллиф. Нахшаб на рубеже древности и средневековья.-Т.,1977; Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства.-Т.,1958; Пугаченкова Г.А. Неизвестные архитектурыные памятники районов Узбекистана// Искусство зодчих Узбекистана.-Т.,1950; Умняков И.И.Архитектурыные памятники Средний Азии.-Т.,1958; Рахимов М.К.Художественная керамика Узбекистана.-Т.,1961; Пешерова Е.М.О ремесленных организациях Средний Азии в конце XIX-начале XX вв.-Т.,1960; Кочнев Б.Д. Раскопки и разведки в Каршинском оазисе//Археологические открытия 1976 года.-М.,1976; Абдуллаев Т. Каталог вшивок Узбекистана XIX-XX века.-Т.,1976; Маньковская Л.Ю. Неизвестные памятники XVI-XIX вв. В Кашкадарьинской области// Строительство и архитектура Узбекистана.1969, №11; Ўша муаллиф. Кашкадарё вохасининг архитектура ёдгорликлари.-Т.,1979; Мукминова Р.Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в.-Т.,1976; Захаров С.М.Очерки истории Кашкадарьинской, Сурхандарьинской областей. УзССР.-Т.,1968; Чориев А, Очилов М. Кашкадарё области.-Т.,1974; Захаров С.М.,Собиржонов А.Карши,-Т.,1978.

¹⁰ Туребеков М. Цитадел Еркургана.-Т.,1982; Исомиддинов М, Сулаймонов Р. Еркурган.-Т.,1984.

Mavzu tarixshunosligining uchinchi davriga mustaqillik davrida yaratilgan asarlar kiradi. Bu davrda bir qator yirik asarlar, maqolalar, risolalar eʼlon qilindi¹¹.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 29 sentyabridagi «Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik koʻrish toʻgʻrisida»gi qarorlari, shuningdek, 2005 yil 26 iyuldagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarorining eʼlon qilinishi bilan voha shaharlari tarixiga oid koʻplab asarlar va risolalar yuzaga keldi¹².

Yosh tadqiqotchilar R.Holiqova, A.Hasanov va G.Tanievalarning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida ham oʻrganilayotgan davrga oid maʼlumotlar mavjud¹³.

Mustaqillik davri manba va adabiyotlarini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, bu davrda yaratilgan asarlar istiqlool mafkurasi yoʻnalishida yozilganligi, voqea va hodisalar xolisona tahlil etilganligi bilan ajralib turadi.

Biroq, voha tarixiga doir koʻp ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan boʻlsa-da, aynan mangʻitlar sulolasi davri, yaʼni XVIII asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarigacha boʻlgan Qarshi shahri tarixining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti oʻzaro yaxlit tarzda oʻrganilmagan.

¹¹ Agzamova G.A. XVI-XIX asrning birinchi yarmida Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти: тарих. фан.докт...дисс.-Т.,2000; Равшанов П. Қашқадарё тарихи.-Т: Фан, 1995; Сулаймонов Р.Х. Древний Нахшаб.-Ташкент-Самарканд, 2000; Мавлонов У.М. Торгове и культурыне связи Қашқадарьинского оазиса в XVII-XIX в.Автореф.дис.канд.ист.наук.-Т.,1994; Аминов Б.Б.Памятники эпиграфики Юга Узбекистана как исторический источник (XV-XX вв.) Автореф.дис..канд.ист.наук.-Т.,1998.

¹² Равшанов П.Нахшаб-Кеш тарихи манбалари. Қарши.2005; Ўша муаллиф. Қарши тарихи.Т.,2006; Бўриев О.,Исмоилов Н. Қарши-Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри.-Қарши,2006;Насриддинов Қ.Қарши қалъаси. Қарши. 2006; Муҳаммад Носир. Насаф ва Кеш алломалари.-Т.,2006; Таниева Г.Қарши беклиги тарихидан лавҳалар.-Т.,2006;Насаф-Қарши жаҳон цивилизацияси тизимида. Қарши., 2005; Қарши шаҳрининг жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. Қарши.-Тошкент.,2006; ҚАРШИ.ҚАРШИ.-Албом.-Т.,2007; Жуманазаров А. Насаф.-Т., 2007.

¹³ Холиқова Р.Е.XIX аср иккинчи ярми-XX аср бошларида Россия-Бухоро муносабатлари тарихи.-Т.,2006; Ҳасанов А. XVI-XIX асрларда шахарсозлик ва меъморчилик (Қашқадарё мисолида). Автореф...тарих.фан..фан..номз.дисс.-Т.,2008. Таниева Г. Роль Каршиньского вилоята политической, социально-экономической жизни Бухарского Эмирата (вторая половина XVI11-первая половина XIX в). Автореф. дис..канд.ист.наук.-Т.,2008.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi, ya'ni mang'itlar sulolasi davridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga oid ma'lumotlarni yangicha tahlil va ilmiy-uslubiy mezonlar asosida bayon etish, umumlashtirish va ularni O'zbekiston tarixida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berishdan iboratdir. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, dissertatsiyada quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirish rejalashtirildi:

- mang'itlar sulolasining Qarshi bekligidagi boshqaruv siyosatini bayon etish; XVIII asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Qarshi shahri tarixiga oid manba va adabiyotlardagi ma'lumotlarni tahlil etish;

- Qarshi bekligidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotni yoritish;

- Rossiya imperiyasi tajovuziga qarshi Abdumalik To'ra boshchiligidagi beklilikda yuzaga kelgan ozodlik harakatlarini bayon etish;

- XX asr boshlaridagi Qarshi shahrining tarixini yoritish hamda ilmiy xulosa va amaliy takliflar berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Qarshi bekligining Mang'itlar sulolasi davridagi tarixini yoritishda yangi manbalardan foydalanilgan holda beklilikning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini yoritishga harakat qildik. Ilmiy izlanish jarayonida arxiv hujjatlari, ko'plab manbalar va ilmiy adabiyotlardan olingan ma'lumotlar umumlashtirildi va davr talablari asosidagi ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot predmeti. Tadqiq etilgan davrda Qarshi bekligining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotidagi bo'lib o'tgan muhim o'zgarishlar tadqiqot predmeti sifatida belgilab olindi.

Tadqiqot ob'ekti. Qarshi bekligining XVIII asr ikkinchi-XX asr boshlariga oid tarixi tadqiqotning ob'ekti sifatida olindi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot, eng avvalo Vatanimizning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lmish, Qarshi shahrini mavzuda ko'rsatib o'tilgan davriga oid ma'lumotlar beradi.

Shuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmida Qarshi bekligida ro'y bergan siyosiy voqealar bayoni, Vatanimiz tarixini Rossiya imperiyasi bosqinchilariga qarshi milliy ozodlik harakati tarixidagi ayrim bo'shliqlarini to'ldirishga yordam beradi.

Adabiyotlar sharhi va tahlili.

O'rganilayotgan davrga oid dastlabki ma'lumotlarni XIX asrlarda turli maqsadlarda O'rta Osiyo xonliklariga, xususan Buxoro xonligiga tashrif buyurgan chet el sayyohlarining hisobotlari va esdaliklaridan olishga harakat qildik.

Ingliz sayyohi Aleksandr Byornsning XIX asr 30-yillarida qilgan sayohati xotiralari bitilgan «Buxoroga sayohat» asarida Qarshi bekligining ma'muriy bo'linishi, aholining ijtimoiy ahvoli, voha tabiati va shunga o'xshash ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin.

XIX asr 60-yillarida Qarshi shahrida bo'lgan major sayyohi H.Vamberining «O'rta Osiyo bo'ylab sayohat» nomli asarida Qarshi bekligining siyosiy va iqtisodiy ahvoli haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Qarshi shahri to'g'risida ko'proq ma'lumot beruvchi, sovetlar davrida yaratilgan asarlardan biri, rus sharqshunosi, akademik V.V.Bartoldning «Turkistonning sug'orilish tarixiga doir» kitobidir. Bu kitobning VIII bobi «Qashqadaryo» deb nomlanadi. Ushbu bobda nafaqat Qarshi shahri, balki butun voha sug'orish inshootlari, shahar me'morchiligi haqida ma'lumotlar keltirilishi bilan birga beklikda kechgan siyosiy voqealar to'g'risida ham to'xtab o'tilgan.

XX asrning 20-yillarida yaratilgan adabiyotlardan yana biri V.L.Vyatkinning Qarshi okrugi, unda qo'shin tashkil etilishi masalalariga bag'ishlangan asari bo'lib, unda muallif 1800-1803 yillar voqealari bayonida, shuningdek, amir Haydarning Qarshi hokimi Hakimbekka yozgan maktublari asosida voha shaharsozligining ayrim jihatlariga aniqlik kirituvchi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Mustaqillik yillarida chop etilgan, taniqli muarrix P.Ravshanovning «Qashqadaryo tarixi» (1995); «Naxshab va Kesh tarixi manbalari» (2005) va Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyi arafasida chop etilgan «Qarshi tarixi»

(2006) kabi kitoblarida Qarshi shahrining qadimgi davridan tokim, XX asr boshlariga qadar bo'lgan tarixi yoritib berilgan. Bu asarda Qarshi bekligining mang'itlar sulolasi hukmronligi davridagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga oid ko'plab ma'lumotlar ham keltirilgan.

Bundan tashqari, mualliflar: N.Ismoilov, O.Bo'rievlarning «Qarshi-O'zbekistonning qadimiy shahri» nomli kitobida ham Qarshi shahrining qariyb uch ming yillik shaharsozlik madaniyati, o'tmishi-kechmishi, vohadagi etnik jarayonlar, savdo-sotiq, hunarmandchilik, ilm-fan ravnaqi, me'moriy va arxeologik yodgorliklari haqida fikr yuritiladi.

Shoir va tarjimon Nosir Muhammadning «Nasaf va Kesh allomalari» (2006) nomli tazkirasida Qarshi vohasida yashab, ijod etgan va nomlari Sharq olamiga ma'lum va mashhur bo'lgan «Nasafiy» taxallusli olimlar, adiblar, bastakor va hattotlar faoliyati muxtasar bayon etilgan. Tarixchi Q.Nasriddinovning «Qarshi qal'asi» (2006) asarida ham o'rganilayotgan davr haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi.

Yosh tadqiqotchilar A.Hasanovning «XVI-XIX asrlarda shaharsozlik va me'morchilik» (Qashqadaryo misolida) hamda G.Tanievaning «Buxoro amirligi hayotida Qarshi bekligining siyosiy, iqtisodiy, o'rni» kabi nomzodlik dissertatsiyalarida ham Qarshi bekligining ijtimoiy va madaniy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Qarshi shahrining 2700 yilligi munosabati bilan ko'plab xalqaro, respublika va mintaqaviy ilmiy-nazariy konferentsiyalar o'tkazilib, to'plamlar chop etildi va albomlar ham tayyorlandi¹⁴. Ushbu to'plamlardagi maqolalar ham Qarshi bekligining o'rganilayotgan davrdagi tarixi haqida ma'lumotlar olish uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qildi.

¹⁴ To'plamlar dissertatsiyaning ilova qismidagi adabiyotlar ro'yxatiga kiritilgan.

I-BOB. XVIII ASR OXIRI-XIX ASR BIRINCHI YARMIDA QARSHI SHAHRIDA SIYOSIY, IQTISODIY VA IJTIMOIIY VAZIYAT.

1.1.Mang'itlar sulolasining Qarshi bekligida olib borgan boshqaruv siyosati.

XVIII asr o'rtalarida, ya'ni so'ngi Ashtarxoniy hukmdor Abul Fayzxon davrida (1711-1747) Buxoro xonligi bir necha mustaqil hokimliklarga bo'linib ketadi. Xonlikka tobelikdan chiqib, mustaqillik da'vo qilgan beklklarda qavm boshliqlari boshqaruvni o'z qo'llariga oladi.

Hokimiyat talashuvlar natijasida bir-biriga g'anim bo'lgan urug' boshliqlari o'zlariga qo'shni bo'lgan tuman yohud shahar va qishloqlarni atayin talon-taroj qilar, oqibatda aholi turmushi izdan chiqar, qishloq xo'jaligi, hunarmandchili, savdo-sotiq, madaniyatga katta putur yetar edi. Abulfayzxon davrida Qashqadaryoda ikki katta urug'-mang'itlar va kenagaslar boshliqlari xon huzurida o'z mavqelarini oshirish nuqtai-nazaridan kelishar olmas edi.

Mang'itlar vohaning quyi qismida Qarshi va uning tevarak-atrofida, kenagaslar esa Shahrisabz, Kitob tumanlarida joylashgan edi. Urug' boshliqlari xonlikda katta imtiyozlarni qo'lga kiritar edi.

Mavqe talashuvlar xalqni tobora bezor qilib, natijada ular o'zlari yashab turgan go'shalardan ketib qolishga majbur bo'lar edi. XVIII asrning 20-yillarida Samarqand butunlay huvillab, shahar xaroba holatiga kelib qoladi¹⁵. Bunday holatni Qashqa vohasining Qarshi va Shahrisabz singari shaharlarida ham ko'rish mumkin edi.

Xonlik urug' boshliqlari o'rtasidagi adovatni bosti-bosti qilish o'rniga, bir tomondan yon bosar, shu bilan birga qarama-qarshilikni yanada kuchaytirib yuborardi. Jumladan, Shahrisabz begi, Kenagaslar boshlig'i

¹⁵ Равшанов П. Қарши тарихи. Т.Янги аср авлоди. 2006. 516-бет.

Ibrohimbiy Otaliq mang'itlarga qarshi kurashda omadi chopmaganiga sababchi bilib, Abulfayzxonga oshkora dushmanlik yo'liga o'tadi. U Samarqandga borib, kuyovi Rajabxonni xon deb e'lon qiladi¹⁶. Bu vaqtda Buxoroda bo'lgan Pyotr I ning elchisi Benevenini aytishicha, g'alayon ko'targanlar gohida poytaxtni besh oylab qamalda tutib turganlar¹⁷. Garchand Rajabxon tez orada vafot etgan bo'lsada, Buxoro yon atrofidagi qishloq-larni talash qariyb yetti yil davom etgan.

XVIII o'rtalarida xonlikda mang'itlarning mavqe o'sib borgan va juda yuqori bo'lgan. Ayniqsa, bu borada Qarshida Otaliq vazifasini bajargan Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim ham o'z maqsadiga erishish yo'lida eronliklar bilan qo'shilib, faol harakat qilgan.

Nodirshoh qo'lida xizmat qilgan Muhammad Rahim bir oz xizmatdan so'ng, Buxoroga kelib, «amir-ul-umaro» mansabini egallaydi.

1747 yildan boshlab, amalda hokimiyat mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahim qo'lida edi. Muhammad Rahim o'z hokimiyatini mustahkamlash va markazlashtirish maqsadi-da talaygina istilochilik yurishlarini amalga oshiradi.

Muhammad Rahim Buxoro xonligi hududlarini kengaytirib, o'z mavqeini mustahkamlay boshlagach, uning obro'-e'tibori ham osha boshlaydi. 1756 yilning kuzida din peshvolari tashabbusi bilan unga rasmiy xon unvonini berish masalasi qo'yiladi. Muhammad Rahim xonlik taxtiga o'tirishga ham haqli edi, chunki u Abulfayzxonning qizini nikohiga olgan edi. Muhammad Rahimxonni taxtga o'tqazish marosimida o'zbek urug'larining vakillari, sayyidlar, din peshvolari, qozilar, qo'shin boshliqlari, e'tiborli kishilar, savdo va hunar ahli qatnashadilar. Ashtarxoniylar davrida bu xildagi tadbirda faqat to'rt asosiy urug' boshliqlari ishtirok etgan. Mang'itlar avvalgi sulola vakillarining boshqaruv tartibidan qisman farq qilgan boshqaruv tartibiga ega bo'lgan. Muhammad

¹⁷ Равшанов П. Кўрсатилган асар. 517-бет.

Rahimxon devonida mansabdorlarning aniq belgilangan joylari bo'lgan. Xonning chap tomonidagi birinchi o'rin naqiblarniki bo'lgan, o'ng tomonidagi birinchi o'rin esa shayxulislomga atalgan. Devondagi mansabga qarab joy olish an'anasi mang'it amirlari davrida o'zgarib borgan.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida yashagan muarrix Muhammad Ali Boljuvoni o'zining «Tarixi nofeiy» (Foydali tarix) asarida Buxoro amirligining boshqaruv tizimi haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Shuningdek, bu asarda amirlikda faoliyat yuritgan amaldorlarni vazifalarini ko'rsatib o'tish bilan birga, beklklarda tayinlanadigan mansablar xususida ham ko'pdan ko'p qiziqarli ma'lumotlar berib o'tiladi.

Bu asarda bayon etilishicha, Buxoroda xonlik taxtiga ko'tarilish quyidagicha bo'lgan: «Hamma vazirlar, qozi ul-qazot va mushtilar dorus-saltanatga yig'ilib, shohlikka loyiq odamni kigizning to'rt burchagidan ko'tarib xonlik taxtiga qo'yib, sultonlik tojini boshiga kiygazib, islom bayrog'ini qo'liga berganlar»¹⁸.

Amirlikda, boshqaruv tizimida Qushbegi lavozimi muhim rol o'ynagan. Ayrim hollarda amirlik qo'shiniga qushbegi boshchilik qilgan.

Ko'pgina manbalarda Buxoro amirligi 27 beklklardan iborat ekanligi aytib o'tiladi. Boljuvoni esa bu beklklarni quyidagi tartibda sanab o'tadi: «Chorjo'y, Karki, Kalif, Qarshi, Karmina, Nurota, Ziyovuddin, Xatirchi, G'uzor, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Chiroqchi, Jomchi va Sherobod, Boysun, Dehnav, Sariosiyo, ya'ni Sarijo'y, Hisor, Qorategin, Darvoz, Boljuvon, Ko'lob, ya'ni Xatlon, Qo'rg'ontepa, Kubodiyon»¹⁹ dir.

Buxoro amiri tomonidan tayin etilgan kishilar beklklni boshqargan.

Ayrim manbalarda, amirlik ixtiyorida bo'lgan Qarshi beklkl «valiahd beklkl» sifatida talqin etiladi. Masalan, rus elshunos olimasi O.A.Suxareva «Buxoro xonligidagi shaharlar tarixiga doir» (1958) asarida quyidagilarni bayon qiladi: «Qarshi-Buxoro xonligining ikkinchi siyosiy markazi bo'lgan,

¹⁸ Мухаммад Али Болжувоний. Тарихи Нофеий. Т.: «Академия». 2001, 27-б.

¹⁹ Ўша жойда.

shakllangan anʼanaga koʻra, bu yerda Buxoro taxti vorisi qarorgohi boʻlgan, u soliq yigʻish ishlarini nazorat qilgan bek bilan boshqaruvga qoʻyilgan»²⁰.

Bekliklarda amir tomonidan bekdan tashqari yana ikkita yuqori mansab egalari tayinlangan. Ulardan biri Amlokдор boʻlib, u amirlik xazinasiga beklikka qarashli hududlardan soliqlarni yigʻishga masʼul boʻlgan. Amlokдorga ham bir qancha xizmat koʻrsatadigan yaʼni amrini bajo qiladigan dorugʻa va mingboshi-yu, ellikboshilari boʻlgan. Amlokдор huzurida baʼzi bahsli masalalar koʻrib chiqilgan.

Qarshi bekligi ham amlokдорlik boshqaruv tizimiga ega boʻlgan. Beklik quyidagi amlokдорlik hududlarini oʻz ichiga olgan: Qarshi, Fayzobod, Beshkent, Pattazan, Fazli, Qamashi, Jeynov, Kasbi, Maymanoq, Jumabozor, Koson, Pargʻuza, Xonobod, Poʻlati, Qorabogʻ.

Qarshi bekligida ham qolgan bekliklarda boʻlgani kabi shaʼriy masalalarni koʻrib chiqish uchun Qozi tayinlangan boʻlib, unga ham bir necha muharrir va noiblari amriga shay turgan. Nizo va janjallar, sharʼiy murofiʼalar, masalalar, fatvo chiqarish Qozining hukmi bilan boʻlgan.

Amir tayinlaydigan beklik yuqori mansablaridan yana biri-bu Raisdir. U sharʼiy murofiʼa, masjidlar va bozorlarni tekshirish, shunga oʻxshash koʻp masalalarni Rais hal qilgan. Oʻnlab mirzolar, noiblar Raisning hukmini ijro etib, qishlogʻu-bozorlarda yurishgan. Rais ham rivoyat hozirlab, nizo va bahsli masalalarni amir nomidan hal qilgan. Koʻrinib turibdiki, bekliklarda amir tomonidan tayinlangan mansab egalari toʻgʻridan-toʻgʻri bekning emas, amirning hukmiga itoat etgan va uning xohish-irodasi boʻyicha ish koʻrgan.

Taʼkidlab oʻtganimizdek, beklikdagi uchta yuqori mansab (bek, qozi va rais) amir tomonidan amalga oshirilgan. Bular sharʼiy yoʻlda ish tutib gunohkor kishini mol-mulkini musodara etib, jazo qoʻllashga haqlari boʻlgan, lekin amirning hukmisiz va mushtining rivoyatisiz biror kimsani qatl qilolmaganlar.

²⁰ Сухарева О.А.К истории городов Бухарского ханство (историко-этно). Т-1958. 55-стр.

Buxoro mulkinining har bir bekligida shu uchala yuqori mansab egalarining hukmi joriy va mansub hisoblangan. Ular har juma kuni amirdan ko'ngil so'rab turganlar. Manbada keltirilishicha, amirga sadoqatlarini izhor qilish uchun «Jumagiy, bandagi va duogo'y»²¹ deb ariza yuborib turishlari lozim bo'lgan. Aks holda, bu mansab egalariga ham qattiq jazo berilib, mol-mulki musodara qilinib, egallab turgan lavozimidan chetlashtirilgan yoki ayrim hollarda hibs etilib, o'rniga boshqa kishi tayin etilgan.

Bekliklarda boshqaruvni yo'lga qo'yilishida, tartib saqlash, tunda ham osoyishtalikni ta'minlashda, kezi kelganda aholidan majburan soliqlarni undirish ishlariga mirshab va soqchilarning alohida mas'uliyati bo'lgan.

Beklik boshqaruvida to'qsabolarini ham muhim o'rni bo'lgan, ular ma'lum harbiy kuchga ega bo'lgan.

Mang'itlar hukmronligi davrida amirlikda qanday yer-suv mulkchilik turlari mavjud bo'lgan bo'lsa, beklillardagi holat ham bundan mustasno bo'lmagan. Qarshi bekligida ham quyidagi mulkchilik shakllari mavjud bo'lgan davlat yerlari (bu amlok yerlar ham deb atalgan), mulk yerlar (xususiy), vaqf yerlaridir.

Davlat yerlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi ko'chmanchi jamoalarga bo'lib berilgan, chunki ular chorvachilik bilan shug'ullanishib, beklik orqali amir xazinasiga xiroj to'lagan. Bunday yerlar sotilmasdi va ayirboshlanmagan. Davlat yerlarining boshqa bir qismi yuqori mansab egalariga, lashkarboshilarga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg'ol tarzda berilgan. Suyurg'ol yerni qo'lga kiritgan kishi, albatta uni boshqarish huquqini ham qo'lga kiritgan. Suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lashi hamda oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi.

Shayboniylar davrida davlat yerlarini «tanho» deb atalgan shakli qaror topgan edi. Bu shaklni amirlik davrida ham kuzatish mumkin. Masalan, XIX

²¹ Муҳаммад Али Болжувоний. Тарихи нофеий, Т.: «Академия», 2001, 29-бет.

asrning birinchi choragida amirlikda tanholarning soni 12 mingdan 36 ming nafarga yetgan²². Tanho yer egalari yerga emas, balki, o'sha yerdan olinadigan soliqqa egalik qilgan.

Davlat yerlarini yana bir qismi dehqonlarga ishlashlari uchun ijaraga berilgan, xuddi mana shu ijarachi dehqonlardan ko'proq xiroj beklklardagi mas'ul amal egalari orqali amirlik xazinasiga yuborilgan. Qarshi bekligi amlokдорlardan yig'ilgan soliqlarni yoki hosilni 1/3 qismini amirlik xazinasiga jo'natib turgan.

Xususiy yerlarning bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo'lib, ularning bu yerlarga egalik qilishlari davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan. Bunday yerlar, asosan, amirlik hududlariga, jumladan, Qarshi bekligi tarkibidagi amloklarda asrlar osha yashab kelayotgan arablarga qarashli yerlar bo'lgan. Bu yerlardan 1/10 qismi miqdorida o'lpon to'langan.

Xususiy yerlarni ikkinchi qismi (mulki hur yoki mulki holis) davlat xizmati bilan bog'liq bo'lib, bu yerlar janglarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorlarning alohida topshiriqlarini bajarishda jonbozlik ko'rsatgan shaxslargagina berilgan. Bunday yerga ega bo'lgan shaxslarga maxsus yorliqlarni amirlikning yuqori mansablaridan biri-Parvonachi topshirgan. Yorliq va yerga ega bo'lgan shaxs barcha mavjud soliqlardan ozod etilgan.

Vaqf yerlari-bu masjid, mozor, xonaqoh va madrasalar uchun ajratilgan yerlardir. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilar va ortib borardi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanar va vaqf mulklarini din peshvolari idora qilar edi.

²² Равшанов П. Кўрсатилган асар. 520-бет.

Beklik aholisidan bir qancha soliq turlari: xiroj, zakot, boj, to'la, yaksara, nimsara kabi soliqlar dastlabki mang'itiiy hukmdorlar davrida olingan bo'lsa, bu soliq turlari XIX asr oxirlarida 40 taga yaqin²³ bo'ladi. Bundan tashqari, aholi majburiyatlarni bajarishga ya'ni jamoa bo'lib foydalanadigan sug'orish inshootlarini barpo qilishga, kanallar qazishga, suv chiqmaydigan joylarda suv chiqarishga, suv inshootlarini tozalashga va shunga o'xshash ko'plab og'ir ishlarga jalb etilardi.

Amir Shohmurodning qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida amirlikning butun aholisini jalb qilish uchun qo'llagan tadbirlaridan biri qo'shpuli solig'i edi. 50 tanoblik yer maydonidan 40 tiyinga yaqin soliq undirish uning davrida ijobiy natijalar beradi. Qarshi mulklarida ham sun'iy sug'orish ishlari ancha jonlanadi. Rus sharqshunosi V.V.Bartold ham o'z asarida buni e'tirof etib «Shohmurod davrida Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryodagi sug'orish tarmoqlari tiklangan edi»²⁴ deydi.

Shohmurod davrida joriy etilgan-qo'shpuli solig'i miqdori, undan keyin hukmronlik qilgan vorislari: Haydar, Nasrullo va Muzaffar davrlarida 3 so'm 60 tiyinga ko'tarilgan, demak, qariyb o'n barobar oshib ketgan. Eng yomoni, bu davrlarga kelib, qo'shpuli ishlanadigan yerdan ham, ishlanmaydigan yerdan ham bir xilda olinavergan.

Qarshi bekligida Shohmurod va Haydar olib borgan islohotlar garchi qishloq xo'jaligini tiklash maqsadida bo'lsa-da, lekin soliqlarning ko'pligi va majburiy ishlarning haddan ziyodligi Qarshi bekligi tarkibiga kiruvchi qishloq aholilarini ahvolini tobora og'ir ahvolga solib qo'ydi. Yerdan ham, moldan ham mosuvo bo'lgan bir qism aholi yollanib ishlashga majbur edi. Yerni ijaraga olgan dehqon uni o'z qo'shi bilan ishlasa-da, o'zi donini eksa-da, hosilning faqat yarmiga egalik qilar edi.

Beklikka qarashli yerlarga paxta, bug'doy, jo'xori, tariq, arpa, beda yetishtirish dehqonchilikning asosini tashkil etgan. Deyarli har bir dehqon

²⁴ Бартольд В.В. Соч. П.,ч. II-М-1964.280-ст.

xo'jaligida o'z ehtiyoji va sotishi uchun paxta yetishtirgan. Beklikda ipakchilik ham ancha rivoj topgan. Bog'dorchilik, sabzavotchilik va polizchilik keng rivojlangan. Piyoz, sabzi, bodring, qovoq, qovun, tarvuz, olma, olxo'ri, o'rik, shaftoli, uzum va boshqa bog'dorchilik va poliz ekinlari yetishtirilgan. Qarshida XIX asrda ko'plab chorbog'lar yaratilganligini, hatto, 1863 yilda Qarshida bo'lgan venger (mojor) sayyohi G.Vamberi ham o'z asarida to'xtalib: «Qarshida omma uchun mo'ljallangan bog'larni ko'rib tamomila hayratda qotdim»²⁵ deb ta'kidlab o'tgan.

Xuddi shunday Qarshi haqida va uning tarovatli bog'lari xususida XIX asrning birinchi choragida amirlikka, xususan, 1832 yilda Qarshida bo'lgan, ingliz missioneri Aleksandr Byorns ham o'zining «Buxoroga sayohat» asarida to'xtalib o'tadi.

Ko'rib o'tganimizdek, xorij sayyohlarini ham e'tiborini tortgan, ularni hayratga solishdek darajadagi go'zal bog'-rog'larni barpo qilishda beklikdagi mazlum xalqning xizmatlari beqiyosdir.

Qarshi bekligida, shahar aholisidan tashqari, yer va chorvasi bo'lmagan dehqonlar ham hunarmandchilikni rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Bunday turmush sharoiti faqat ehtiyoj yuzasidan amalga oshirilmay, balki, xalqimizning asrlar osha boyib kelgan tajribalaridan kelib chiqqan. Masalan, mazkur davrlarda Kasbida kulolchilik, G'ilon, Koson va G'uzorda temirchilik, to'qimachilik, bo'yoqchilik va boshqa sohalar keng miqyosda rivojlangan.

Qarshi bekligi tarkibiga kirgan ayrim qishloq yoki mahalla nomlari, o'sha qishloq aholisining qaysi hunar bilan shug'ullanganligidan dalolat bergan. Masalan, Qarshida Degrez, Misgarlik, Charmgar, Sandiqchi, Dukchi, Kosagir, Duradgor kabi ko'plab mahallalar mavjud bo'lgan.

Qarshi bekligida biz yuqorida, nomlarini zikr qilgan mahallalardan tashqari, XX asr boshlarida quyidagi mahallalar ham mavjud bo'lganligini

²⁵ Вамбери Г. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи.Т.1990

rus elshunos olimasi O.A.Suxareva ham o'z asarida ta'kidlab o'tadi: Murdasha'y, Mirzallot, Og'aliq, Chubin, Xonaqo, Harrot, Sharshara, Beglarbegi, Xitoy, O'ymavut, Eronguzar, Qozixona, Haramsaroy, Darvozayitutak, Boyguzari, Mirzalatip, Temirchi, Xolvagar, Kulolguzar, Chilongaron va boshqalar²⁶.

Mazkur asarda shaharga tutashgan 20 tacha qishloq (mahallot)ning nomi ham tilga olingan: Charmgar, Qo'rg'oncha, Zog'za, Arabxona (Qumrabot), Buzrabot (Buzrukobod), Beshgumbaz, Mahsumobod, Qarluqxona va hokazo.

O.A.Suxarevaning yozishicha, XIX asrning oxiri XX asr boshida Qarshi shahrida 2,5-3 minggacha xonadon mavjud bo'lib, uning har birida olti nafar jon yashagan bo'lsa, demak, shahar aholisi 15-18 ming bo'lgan.

²⁶ Исмоилов И., О.Бўриев. Қарши-Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри. Қарши-2006. 64-бет.

1.2.Mang'it hukmdorlari davrida Qarshi bekligida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohadagi o'zgarishlar.

Qarshi bekligida ijtimoiy va madaniy sohada o'zgarishlar xalq orasida «amir Ma'sum» (begunoh amir) nomi bilan shuhrat qozongan, mang'itlar sulolasining vakili amir Shohmurod davrida (1785-1800 y) ko'zga tashlanadi. Amir Shohmurod ko'plab ijobiy jihatlari bilan boshqa mang'it hukmdorlaridan farq qilgan.

Amir Shohmurod o'z mamlakatini XIX asr bo'sag'alarida bir qadar quvvatli qilishga erishgan Shohmurod davrida aholidan olinadigan soliqlar obodonchilik ishlariga, qishloq xo'jaligini yuksaltirish singari muhim ishlarga sarf qilinganligi ham uning naqadar ezgu ishlarning homiysi ekanligini ko'rsatadi.

Amir Shohmurodni sug'orish tarmoqlariga alohida e'tibor berganligini rus sharqshunosi V.V.Bartold ham o'z asarida «uning podshohligi davrida Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryodagi sug'orish tarmoqlari tiklangan edi»²⁷ deb e'tirof etib o'tadi.

Qarshi shahrini tiklash ishlariga faqatgina amir Shohmurod davrida kirishildi. Qarshi shahri mang'itlar sulolasining o'ziga tayanch ma'volaridan hisoblanar edi. Amir Shohmurod o'limidan bir oz oldinroq o'g'li va valiahdi Haydarni Qarshi bekligiga hokim qilib jo'natadi.

Amir Haydar davrida Qarshi shahrining qo'rg'oni, masjid va madrasalari, karvon saroylari, namozgoh masjidi ta'mirlanadi, shahar obodonlashtiriladi.

Qarshi bekligidagi ko'pgina ijtimoiy o'zgarishlar to'g'risida xorij ellaridan tashrif buyurgan o'sha davr sayyohlari o'z ma'lumotlarida qayd qilib o'tgan.

²⁷ Бартольд В.В. Соч, п.ч.И.М:-280-бет.

Bizga ma'lumki, Rossiya imperiyasi Pyotr I davridan boshlab Turkistonga ko'z tikkan edi. Doniyolbiy Otaliq davrida Buxoroga kelgan savdo missiyasi ijobiy natija bermaydi. Shunga qaramay, rus podshohlari dunyoni qayta bo'lib olish kurashida inglizlardan ortda qolishni istamas edi.

Buxoro amirligiga XIX asr birinchi yarmida, amir Nasrullo (1826-1860) hukmronligi davrida ajnabiylar (ruslar, inglizlar)ning tashriflari tez-tez takrorlanadigan bo'lib qoladi.

Buxorodagi rus elchixonasi xodimi Meyendorf 1820 yilda Qarshini Buxoro amirligining yirik aholi maskani va xalqaro safdo yo'lidagi shahar sifatida ta'riflangan²⁸. Hirot va Kelifdan kelayotgan karvonlar eng avvalo Qarshi shahrida to'xtashib bozorda turli qorako'l terilari, quruq mevalar, paxta xom ashyosi va tolalari mahsulotini sotib olishgan.

O'rta Osiyo xonliklariga ruslar bilan bir qatorda inglizlarni ham qiziqishlari ortib borgan.

Jumladan, 1892 yilda Buxoro amirligida bo'lgan, «Buxoroga sayohat» asarining muallifi Aleksandr Byorns (Borns) ham inglizlarning Ost-Indiya kompaniyasi vakili bo'lgan.

Aleksandr Byorns yozib qoldirgan ma'lumotlarga qaraganda, «Qarshi shahri maydoni (40 gektar) jihatidan Balx va Samarqanddan ham salohiyatli bo'lib, katta bozor va keng rastalarga ega bo'lgan²⁹.

Xususan, Qarshi shahri XIX asr boshlarida uch qismdan-o'rda, qo'rg'on yoki eski shahar va yangi shaharlardan iborat bo'lgan.

A.Byornsni Qarshining yaydoq cho'l o'rtasida o'rnashganligi, bu joydagi tiriklik manbai suv ekanligi tevarak atrofidagi bog'lar, mevazorlar, terakzorlar haqida so'z yuritib, o'sha yillarda Qarshining o'zini o'nglab olganligi, iqtisodiy jihatdan mo'tadil hayot kechira boshlaganligidan darak beradi.

²⁸ Исмоилов Н., Бўриев О. «Қарши-Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри». Насаф 2006 йил 46-бет.

²⁹ Исмоилов Н., Бўриев О. Кўрсатилган асар. Ўша жойда.

XIX asrning 30 yillarida Buxoroga «tatar mullasi-Mirzo Ja‘far» nomi bilan tashrif buyurgan rus fuqarosi P.I.Demezov ham Qarshiga oid ko‘p ma‘lumotlar yozib qoldirgan. U Qarshi bekligida saqlanadigan Buxoro amiri qo‘shinlari haqida ham to‘xtalib o‘tadi.

P.I.Demezov Buxoro amiri Nasrullo xonning harbiy quvvati haqida ma‘lumot to‘plab, Buxoroda 7 ming, Qarshida 2500 qo‘shin saqlanganligini ta‘kidlab o‘tadi.

Yana bir rus sayyohi P.S.Savelev 1835 yilda Buxoro amirligida bo‘lib, asosan yo‘llar bilan qiziqib qoladi va Qarshiga tutash yo‘llar haqida ma‘lumot qoldirgan.

Amir Nasrullo saltanatining 40-yillarida uning mulklariga kelgan K.F.Butenev asosan yer osti boyliklariga, ma‘danlar, konlarga qiziqib ko‘radi. U Buxoro aholisi gaplariga tayanib, Qarshiga yaqin tog‘larda ko‘mir borligini aytib o‘tgan.

O‘sha davrda Buxoro amirligida uchta katta tuz koni mavjud bo‘lgan bo‘lsa, shulardan biri Qarshiga yaqin bo‘lgan va bu konning oq tuzi sifati yuqori bo‘lganligi uchun boshqa tuzlarga nisbatan qimmat bo‘lgan³⁰.

XIX asrning 60-yillarida, aniqrog‘i 1863 yilda Buxoro amirligiga tashrif buyurib va Qarshi bekligi to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar qoldirgan sayyohlardan biri bu-venger (major) olimi Xerman Vamberi edi.

Xerman Vamberi o‘z sayohati natijasini «Buxoro yohud Movarounnahr tarixi» asariga bayon aytaydi. Vamberi asarining alohida bir bobi (XII) Qarshi shahriga bag‘ishlanadi.

O‘sha vaqtda Samarqanddan Qarshiga uchta yo‘l borgan, birinchi Shahrisabz orqali, ikkinchi Jom orqali 15 milga cho‘zilib tog‘ yurtidan, toshloqlardan o‘tgan uchinchi yo‘l cho‘ldan ya‘ni 18 mil uzoqroqdan o‘tgan³¹.

³⁰ Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках, 61-стр.. 1990

³¹ Вамбери Х. «Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи». Т., 1990. 162-бет.

Venger (mojor) sharqshunosi o'z ma'lumotlarida Qarshi aholisining etnik tarkibi to'g'risida ham to'xtab, aholining aksariyat qismini o'zbeklar tashkil etishi bilan birga, shaharda tojiklar, afg'onlar, hindular, yahudiylar ham istiqomat qilishi haqida xabar qoldiradi.

Vamberi Qarshi shahrida bo'lgan davrda bu yerda o'nta karvonsaroy faoliyat ko'rsatib turganligi haqida ma'lumotlar beradi, chunki u davrda Qarshi shahri Buxoro amirligining Afg'oniston va Hindiston bilan olib boradigan xalqaro savdosida tranzit vazifasini o'tagan.

Venger (mojor) sayyohi shahar tuzilishiga to'xtalib, «qadimiy Naxshab, kattaligi bilan shuningdek savdo bo'yicha ham Buxoro xonligida ikkinchi shahardir. U shaharning o'zidan va uning shimoliy-g'arbiy qismidagi nochor istehkomga ega bo'lgan qo'rg'onchadan iborat»³²-deb ta'rif etgan.

A.Byorns bilan G.Vamberi ma'lumotlarini taqqoslab ko'radigan bo'lsak, ularning har ikkalasi ham Qarshi Buxoro xonligida hatto poytaxtdan so'ng iqtisodiy jihatdan ikkinchi shahar ekanligini e'tirof etgan.

Vengriyalik olimni Qarshidagi yana bir jihat hayajonga soladi va bu haqida u o'z estaliklarida shunday deydi «Qarshida omma uchun ochiq bo'lgan dam olish joyini ko'rib, tamomila hayratda qoldim. Buni nafaqat Samarqandda, hatto Eronda ham uchratib bo'lmaydi. U daryo qirg'og'ida quloch yozgan va «Qalandarxona» deb ataladigan kattakon bog' edi. Unda (odamlar) peshindan yarim kechagacha jam bo'lishardi. Har tomonda choyxonalar bo'lib, ular atrofida guruh-guruh odamlar yig'iladi. Bu xushchaqchaq davradagilar ko'rinishi Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat qiluvchilar uchun g'alati, g'ayritabiiy bo'lib tuyuladi»³³.

G.Vamberining ko'rsatishicha, «Buxoro xonligi, Xivadagi singari, siyosiy nuqtai-nazardan katta shaharlar soniga qarab bo'linadi. 1) Qorako'l, 2) Buxoro, 3)Qarshi, 4)Samarqand, 5)Karki, 6) Xizor (Xuzor), 7)Miyonqol

³² X.Вамбери. «Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи». Т.,1990, 162 б.

³³ Лунин Б.В. «История Ўзбекистана в источниках», 1990 г.140-стр.

yoki Karmana, 8)Katta qo'rg'on, 9) Chorshuy (CHorjo'y), 10)Jizzax, 11) O'ratuba, 12)Shari Sabe (Shahrisabz). Bu so'nggi beklik kattaligi jihatidan Samarqandga tenglashadi, biroq amir bilan muntazam olib borilgan urushlar oqibatida uning faqat bir qismini xonlikka tobin deyish mumkin»³⁴.

Xo'sh, ko'rib o'tilayotgan davrda Qarshida ijtimoiy ahvol qanday edi? Ayrim muarrixlar fikricha, Ashtarxoniylar (1601-1757) davrida dehqonlarga bo'lgan zug'um chovuti keng yozilgan edi. Dehqon xo'jaliklari o'zaro jangu-jadallar, soliqlar og'irligi va boshqa ijtimoiy jarayonlar sababli tanazzulga yuz tutadi. Bu davrda jamoa tarkiblarining barham topishi, dehqon-ijarachilar guruhlarining ko'payishi bilan bog'liq chuqur ijtimoiy jarayon³⁵ ketayotgan edi.

Dehqon-jamoachining ijarachiga nisbatan ma'lum imtiyozi bo'lgan. U jamoa yerida bir umr ishlashi, uning avlodlari ham shu huquqdan foydalanishi mumkin edi. Dehqon-ijarachi esa har ikki-uch yilda yangi yer topishga, uni omonat ijaraga olib ishlashga majbur edi. P.P.Ivanov asarida keltirib o'tilgani kabi, yirik yer mulklarining egalari bu yerlarda o'z xususiy xo'jaliklari bilan shug'ullanmas edilar³⁶.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro amirligida arzigudek iqtisodiy siljishlar yuz berdi. Bu eng avvalo, ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyotida ko'zda tashlanadi. Mang'itlar sulolasi mamlakatning parchalanishiga, ichki nizolarga asta-sekin barham bera boradi, shaharlarda hayot qayta jonlanadi. Qozoqlar 1755-1760 yillarda xitoyliklardan mag'lub bo'lganidan so'ng o'z chegaralariga qaytib ketadi. Bu esa xonlik mulklarining yana bir talonchilikdan qutilishi bo'ladi.

XVIII asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligi Turkiston tuprog'ida vujudga kelgan uch davlat o'rtasida markaziy o'rinni ishg'ol qilishiga

³⁴ Равшанов П. «Қарши тарихи» 2006 йил. Янги аср авлоди. 526-бет.

³⁵ Гафуров Б.Г.Таджики. Душанбе.1989г.2-книга.318-стр.

³⁶ Равшанов П.Кўрсатилган асар.530-бет.

qaramasdan, hatto, XIX asr boshlarida unda mayda feodal mulklar o'z mustaqilligini saqlab qolgan edi. Shulardan biri Shahrizabz bekligi edi.

Mang'itlar sulolasining vakili amir Shohmurod qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida bir qancha tadbirlar qo'llagan. Shunday tadbirlardan biri, «qo'sh puli» solig'i edi. 50 tanoblik yer maydonidan 40 tiyinga yaqin soliq undirish uning davrida ijobiy natijalar beradi. Qarshi mulklarida ham sun'iy sug'orish ishlari ancha jonlanadi. Biroq, undan keyingi amirlar, masalan, Haydar, Nasrullo va Muzaffarlar davrida bu soliq miqdori 3 so'm 60 tiyinga qadar ko'tarilgan, demak, qariyb o'n baravar oshib ketgan. Eng yomoni, bu davrlarga kelib, qo'sh puli ishlanadigan yerdan ham, ishlanmaydigan yerdan ham bir xilda olinavergan.

Amir Shohmurod va Amir Haydarlar davrida amalga oshirilgan sug'orish inshootlari, chiqarilgan ariqlar dehqonchilik taraqqiyotiga ma'lum darajada omil bo'lgan bo'lsa-da, hosil beradigan yerlar ko'lami o'troq aholi ehtiyojlarini to'la qondira olmagan.

Qashqa vohasida, ko'rib chiqilayotgan davrda shahar aholisidan tashqari, yer va suvi bo'lmagan, chorvasi yo'q qishloq kishilarining ham bir qismi hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Bundan turmush sharoiti faqat ehtiyoj orqasidan bo'lib qolmasdan, Qashqa vohasidagi ko'p asrlik an'ana bilan ham bog'liq edi. Masalan, Kasbida kulolchilik taraqqiy etgan bo'lsa, G'ilon, Koson, G'uzorda temirchilik, to'qimachilik, bo'yoqchilik va boshqa sohalar keng rivojlangan.

Qarshida Shahrizabz, Kitob, G'uzor va Kosonda bo'lgani singari sanoat ham yo'lga tusha boshlagan. Paxtani, junni, ipakni qayta ishlash korxonalari buning misolidir³⁷.

XIX asr birinchi yarmida va ikkinchi yarmi boshlarida Buxoro xonligida, xususan Qarshida bo'lgan ajnabiylar bog'-rog'larga alohida e'tibor berib, ko'p ekiladigan ekinlar haqida ham ma'lumotlar qoldirgan.

³⁷ Равшанов П. Қарши тарихи. Янги аср авлоди. 2006, 534-бет.

Xuddi shundaylardan biri, XIX asrning 30-yillarida Buxoro xonligiga tashrif buyurgan rus fuqarosi P.I.Demezov Buxoro amirligidagi paxtachilik haqida gapirganida, uning 15 apreldan 25 aprelga qadar ekilishi va 15 avgustdan 10 sentyabrga qadar yig'ib olinishini eslatib³⁸ o'tadi. Rus fuqarosi P.I.Demezov keltirgan ma'lumotlarda quyidagi so'zlar ham uchraydi «G'o'za o'simligi ko'p g'amxo'rlikni talab qiladi, negaki, kamida har haftada sug'orish kerak. U sovuqqa juda chidamsiz, avgust oxirlarida bo'ladigan shimol shamollari va yer usti muzlashlaridan tez-tez nobud bo'lib turadi. Buxoro, Miyonqol, Karmana va Samarqandda paxtani yaxshi yetishtiradilar. Qarshi va Chorjo'y paxtasining sifati ancha past bo'ladi³⁹.

Qarshi XIX asrning ikkinchi choragi boshlarida tamaki yetishtirishda ham mashhur bo'lgan. Qarshining tamakisini P.I.Demezov «a'lo navli» deya maqtab tilga oladi.

Buxoro xonligida Qarshi shahrining nufuzini oshishi XVI asrning ikkinchi yarmidan ko'zga tashlanadi.

Buxoroni G'uzor, Yakkabog' kabi bekliklar bilan qiladigan savdosi Qarshi shahri orqali o'tgan. Shuningdek, Buxoro shahri Toshkent, Samarqand vohalari, Farg'ona vodiysi hamda Afg'oniston va Hindiston, Xitoy bilan ham Qarshi vositasida bog'langan. Natijada XVII asrning oxirlariga kelib Qarshi savdo-sotiq bo'yicha Buxoro shahridan keyingi ikkinchi o'rinda turgan⁴⁰.

Manbalarda bayon etilishicha, Qarshida 1840 yilda 3 ta, 1863 yilda esa 10 ta karvonsaroy mavjud bo'lgan.

Buxoro shahrining savdo va iqtisodiy aloqalarida ham Qarshi muhim o'rin tutgan. Chunki bu salohiyatli shahar ham yirik karvon yo'llarining kesishgan chorrahasida joylashgan edi. Xitoy, Yettisuv va O'rta Osiyoning yirik shaharlari Xuroson, Eron bilan Buxoroni Afg'oniston va Hindistondagi

³⁸ Лунин Б.В. «История Узбекистана в источниках», 1990 г.43-стр.

³⁹ Шу асар, 43-бет.

⁴⁰ Исмоилов Н., Бўриев О. «Қарши-Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри». Насаф-2006, 74-бет.

savdo shaharlari bilan bog'lovchi karvon yo'llari butun so'nggi asrlarda Qarshi orqali o'tganligi shaharning savdo markazi sifatida yuksaltirgan.

Sharqiy Buxoro bekliklari, Afg'oniston va Hindistondan kelayotgan savdo karvonlari agar maxsus ehtiyoj tug'ilmasa, poytaxt Buxoro shahriga bormasdan soliqlar va bojlarni to'lab, Samarqand, Toshkent va Farg'ona tomonlarga yo'l olishgan. Shuningdek, Qarshi xalqaro ulgurji savdo markazi va yirik miqdordagi tovarlarni saqlash imkoniyatiga ega bo'lgan shahar sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Qarshida Buxoro bilan asosiy tranzit savdo yo'li joylashganligi sababli ham ko'proq xonlik markazi Buxoro shahri madaniyatining ta'siri ayniqsa sezilarli bo'lgan. O'z navbatida Qarshi savdogarlari ham Rossiya, Afg'oniston, Eron va Hindiston bilan ham samarali savdo aloqalarini o'rnatishgan. «Tarixiy to'plam»ga kirgan rus tadqiqotchisi P.Shubinskiyning «Buxoro ocherklari» nomli maqolasida (1892) Qarshiga Buxorodan paxta, ipak, kigiz, Rossiyadan chit, ipak matolar, parcha, teri, chinni, metall va Hindistondan gilam, hind kiseli, dori-darmon, parcha, hind murabbolari, Erondan ingliz chiti, ip-gazlama, Badaxshondan qimmatli la'li toshlar, Qoshg'ardan esa chinni, choy, ipak mahsulotlari keltirilganligi qayd etilgan⁴¹.

1894 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, savdo va hunarmandchilik Qarshiga o'sha davr narxida 1 mln. 800 ming so'mlik qo'shimcha sof soyda keltirgan⁴². Qarshi bozori orqaligina ko'plab paxta, quruq meva, ipak, tamaki chiqarilgan.

Bu davrda Qarshi Buxoro shahrining savdo-sotiq, iqtisodiy va madaniy aloqaalarida asosiy o'rinlardan birida turgan. Xitoy, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoning yirik shaharlarini Xuroson va Eron bilan hamda Buxoro shahrini Afg'oniston va Hindistondagi savdo shaharlari bilan bog'lovchi karvon yo'llari so'nggi o'rta asrlar davomida Qarshi orqali

⁴¹ Шу асар, 75-бет.

⁴² Шу жойда, 75-бет.

bog'lanuvchi yo'l bo'lgan. Buxoro shahri darvozalaridan hamda karvonsaroylaridan biri Qarshi nomi bilan atalishi bejiz emas, albatta. O'z navbatida Qarshi shahri darvozalaridan biri ham Buxoro darvozasi deb atalgan. Amirlik boshqaruv tizimida ham qarshilik amaldorlarning nufuzi ancha baland bo'lgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, XVIII asr o'rtalarida Qarshi yirik savdo shahri bo'lib, qo'rg'onning barcha bosh ko'chalarida savdo do'konlari faoliyat ko'rsatgan, lekin ularning asosiy qismi shaharning shimoliy qismida joylashgan.

Samarqand janubidagi xalqaro savdo yo'li ham Nasaf va Kesh orqali o'tgan. Farg'ona, Toshkent vohasi va Samarqanddan chiqqan karvonlar Jom dashti orqali Nasafga kelishgan. Bu yerdan Kelif, Kerki yoki Amir Temur darvozasi orqali Termizga eltuvchi yo'llarga bog'langan. Nasaf-Termiz savdo yo'li Subah, Kindik qishlog'i va Temir darvoza orqali o'tgan. Kindik qishlog'i Nasafdan uch kunlik yo'l masofada joylashgan bo'lib, bu yerda Samarqanddan Kesh orqali keluvchi savdo yo'li Nasaf-Termiz savdo yo'liga qo'shilib ketgan⁴³.

XVIII asrning oxirlarida, Haydar To'ra Qarshiga hokimligi vaqtida, qo'rg'ondan tashqarida savdo do'konlari qurishni taqiqlovchi farmon chiqaradi. XIX asrning boshlariga kelib, Qarshi shahar aholisi ko'payib, hududi kengayganligi bois bu farmon o'z-o'zidan bekor qilinadi. Asta-sekin qo'rg'on atrofida o'z bozorlariga, savdo do'konlariga ega bo'lgan yangi shahar paydo bo'ladi, qo'rg'on esa «eski shahar» nomini oladi.

O'rta Osiyo shaharlari aholisining asosiy qismi bevosita savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lishganligi sababli, Quyi Qashqadaryo vohasidagi yirik savdo markazlari Qarshi, Shahrisabz, Kitob va Yakkabog' kabi shaharlarda ham mavjud bo'lgan. Bu shaharlar bir-birlari, katta bozorlar hamda atrofdagi qishloqlar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab borgan.

⁴³ Мавлонов Ў., Маҳкамова Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари. Т., «Академия», 2004, 77-79 бет.

Qishloqlarda yetishtirilgan ziroatchilik mahsulotlari mazkur shaharlar bozorlariga sotish uchun olib chiqilgan. Shahar hunarmandchiligining o'sib borishi Qarshi shahrida alohida-alohida ixtisoslashgan hunarmandlar mahallalarini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Vohaning eng yirik shaharlaridan bo'lgan Qarshi butun Buxoro xonligining savdo aloqalarida katta o'rin tutgan. Shahar atrofida joylashgan qishloqlardan Qarshiga dehqonchilik mahsulotlari: arpa, bug'doy, paxta, tamaki, bog'dorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari ko'plab olib kelingan. Qarshi bozorida keltirilgan dehqonchilik buyumlar, aksariyat Surxondaryo vohasidan keltirilgan.

Voha atrofida yashovchi chorvador aholi esa shahar bozoriga jun, jundan tayyorlangan ipak, iplar va tayyor mahsulotlar (gilam, xurjun, arqon va boshqalar), teri va teri mahsulotlari hamda tirik mollarni yetkazib berganlar.

Qarshi atrofidagi, ya'ni o'troq arablar tomonidan yetkazib beriladigan qoramol terilari Qarshi bozorida yig'ilib, u yerdan Buxoro orqali Rossiyaga olib chiqilgan. Qarshi shahri quyi Qashqadaryodagi barcha chorvadorlar uchun eng asosiy savdo markazi hisoblangan.

Qarshi bozorida Hisordan olib kelingan alacha, Sheroboddan keltirilgan turli gilamlar, hisorlik ustalarning butun xonlikka mashhur pichoq va xanjarlari sotilgan⁴³.

Qarshida mavjud bo'lgan bozorlar haqida fikr yuritgandar, XVIII asr o'rtalaridayoq katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan mol bozori muhim ahamiyat kasb etadi. O'sha davrda (XVIII-XIX asr) bu yerga Amudaryo bo'ylarida yashovchi turkmanlar ham o'z qo'ylarini va mashhur turkman otlarini sotish uchun olib kelgan. Manbalarda Qarshidagi jun va jundan tayyorlangan mahsulotlar sotiladigan savdo rastalari katta maydonni egallaganligi qayd etiladi.

⁴³ Исмоилов Н., Бўриев О. «Қарши-Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри». Насаф-2006, 79-бет.

Qarshi shahri, sharqiy Buxorodan (Hisor va Surxondaryo vohasidan) keltirilgan don mahsulotlari va boshqa mahsulotlar saqlanadigan joy hisoblangan. Bu mahsulotlar odatda Buxoroga jo'natilgan. Ba'zilar esa Buxoro orqali chet o'lkalarga olib chiqilgan.

Qarshi shahrida chetdan keltirilgan mahsulotlar ham sotilgan. Ko'pincha chet eldan keltirilgan mahsulotlar Qarshi bozori orqali butun vohaga tarqalgan. Masalan, Rossiyaning nafis chinni idishlari, metall va metall buyumlari shular jumlasiga kiradi. Rossiyadan keltirilgan metallardan xususan, sariq misdan mahalliy hunarmand ustalar misgarlar turli mahsulotlar tayyorlaganlar. Qarshida Hindistondan keltirilgan matolarni bo'yashda ishlatiladigan bo'yoq-indigo hamda XIX asrning oxirlarida Rossiya, Eron, Hindiston va Afg'onistondan keltirilgan dorivor o'simliklar ildizlari, o'tlar va dori-darmonlar sotilgan. Xitoydan keltirilgan chinni idishlar-choynak, piyola, kosa-tovoqlarga esa voha aholisining boy va o'ziga to'q oilalari xaridor bo'lgan.

Shunday qilib, tadqiq etilayotgan davrda Qarshi Amudaryogacha cho'zilgan ulkan dashtu-cho'l hududi zonasidagi yagona yirik savdo markazi sifatida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Qarshi shahri Buxoroning Afg'oniston (Balx, Hirot, Qabul) va Hindiston shaharlari hamda Shahrisabz, Surxon vohasidagi shaharlar bilan bo'lgan savdo aloqalarida muhim o'rin tutgan. Manbalarda Qarshi shahrini xonlikning mahsulotlar saqlanadigan omborxonasi vazifasini ham bajarganligi ta'kidlangan. Bu esa shaharning savdo markazi sifatidagi ahamiyatini yanada oshirgan, albatta.

O'rganilayotgan davrda vohaning shaharlari ichida o'zining savdo markazi sifatidagi ahamiyati bilan G'uzor shahri ham alohida ajralib turgan. Buxoro va Qarshini hamda Samarqand va Shahrisabzni Surxon vohasi bilan bog'lovchi eng yaqin va qulay tog' yo'li boshlanadigan joyda, hamda savdo yo'llari kesishadigan chorrahada joylashgan bu shahar vohaning savdo munosabatlari rivoj topgan muhim aholi maskani bo'lgan. G'uzorning savdo

shahri va markazi sifatidagi ahamiyati, ayniqsa, uning atrofida joylashgan tog' va tog'-oldi qishloqlari aholisi uchun katta bo'lgan. Mazkur shahar bozorida, asosan chorva, chorvachilik mahsulotlari bilan savdo qilingan. Har haftada bu yerda bo'ladigan bozorda nafaqat mahalliy chorvadorlarning sara mollari, balki, Hisor, Ko'lob, hatto Afg'onistondan olib kelingan chorva mollari-qo'ylar ham sotilgan. Bozorga Buxoro, Samarqanddan qo'y sotib olish uchun savdogarlar kelishgan.

Voha savdo shaharlari ichida Chiroqchi shahrining ham o'ziga yarasha o'рни bo'lgan. Jomdan Qashqadaryoning o'rta oqimigacha bo'lgan keng hududda yashagan chorvadorlar uchun dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari sotib olinadigan asosiy savdo markaz Chiroqchi hisoblangan. Shahrisabz va Qarshi orqali boshqa shaharlardan Chiroqchiga turli mahsulotlar keltirilgan va ular shahar bozori orqali atrofdagi qishloqlarga tarqatilgan. Xullas, Qashqadaryo, jumladan, Qarshi vohasidagi shaharlar hunarmandchilik va savdo markazi sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Ishlab chiqarish va savdoning ravnaq topishi shaharning o'sishiga olib kelib, qo'rg'on qismi savdo markaziga aylana borgan.

Qarshi qo'rg'onidagi hunarmand kambag'al aholi savdogar va boy tabaqa tomonidan qo'rg'on tashqarisiga siqib chiqarilgan. Shaharning hunarmandlar joylashgan qismida do'kon peshtaxtalari paydo bo'lib, bozorlar shakllangan. Bozorlar shahar ostonalarigacha kengaygan. Savdo peshtaxtalari va hunarmandlar do'konlari shahar darvozalarigacha eltuvchi ko'chalar bo'ylab tizilgan. Eski shahardan sharqiy-janubiy tomonda aholi ancha zich yashagan. XX asrning boshidagi hunarmandchilik va savdo markazi aholi ziya joylashgan hududi shu yerda shakllangan. Asosiy katta bozor «Yuqori bozor» deb atalardi⁴⁴. Qo'rg'ondan va Elchixona darvozalari orqali o'ngga bozorga borilib, bu hududda rastalar, boy savdogarlarning usti

⁴⁴ Исмоилов Н., Бўриев О. «Қарши-Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри», Насаф 2006, 83-бет.

yopilgan peshtaxtalari va ko'plab hunarmandchilik do'konlari, oshxona va choyxonalar mavjud bo'lgan.

Katta maydonni tashkil etadigan maxsus duradgorlik ustaxonalari somon va mol bozori, yuqori bozor chetida va qo'rg'on o'rtasidan uzoqda joylashgan. Ularda mashhur qorabayir zotli otlari, qo'y bozorida esa Shahrizabzdan keltirilib sotiladigan mashhur hisori qo'ylari bilan birga shoxsiz, mayin junli qorako'l qo'ylari ko'plab sotilgan, chunki Qashqadaryo vohasida XIX asrning oxiridan qorako'lchilik bilan shug'ullanish avj olgan edi. Chorva soni har doim ko'p bo'lsa ham, asosan kech kuz va qish boshlanganida bozorga ko'p mol kiritilib, savdo qizigan. Qarshining ikki o'rkachli tuyalari butun Sharqda mashhur bo'lgan.

Jun va qorako'l terisiga talab faqatgina Movarounnahrda emas, balki Rossiya va boshqa chet davlatlarda ham talab kuchli edi. Jahon bozorida qorako'l terisi uchun talab to'xtovsiz o'sib borgan. Xorijga ham asosan teri chiqarilgan. Buxoro xonligidagi rus va chet el firmalari agentlari qorako'l terini to'plash bilan shug'ullangan, chunki ular qorako'l terilari orqasidan katta daromad olganlar. Masalan, o'n dona qorako'l terisi bozorda bor-yo'g'i 40 tilla turgan. Bunga amir xazinasiga olinadigan zakot puli kirmaydi. Xorijga asosan shu teri chiqarilgan.

Qarshidagi Charmgar guzari⁴⁵ terichilari turli xil turdagi oshlangan teri ishlab chiqarganlar. Qo'y terisidan zamin, saxtiyon, charm, echki terisidan qayroqi yoki bo'z, tuya terisidan bulg'or kabi teri turlarini ishlab chiqarganlar. Buzrukobod guzarida eshak terisi oshlanib, teriga yashil rang berilgan va u «kemuxt» deb atalgan. Poyabzal hunarmandlari faqat ichki bozor uchun mahsulot qilib chiqarishgan.

Qashqadaryo vohasi Buxoro xonligining eng ko'p bug'doy yetishtiradigan hududi hisoblangan. Voha poytaxti iqtisodida bug'doy savdosi ham muhim o'rin tutgan. Amir amaldorlari savdogarlar bug'doy

⁴⁵ Charmgar mahallasi hozirda ham shu nom bilan mavjud.

narxini sun'iy oshirmasliklari chorasini ko'rib bug'doy narxini qat'iy belgilab berishgan. Beshdan bir qism bug'doy hosili amir xazinasiga xiroj tariqasida to'langan. Shunga qaramasdan, bug'doy yetishtirish va g'alla savdosi gullab yashnagan. Bug'doy bozori jun bozori yonginasida joylashgan. Bozorga don mahsulotlari voha dehqonlari tog' oldi aholisi, xususan, Hisor viloyatining Denov va boshqa tumanlaridan savdogarlar don keltirib sotishgan. Qarshi bozoridagi ko'tara savdodan so'ng don deyarli har kuni tuya karvonlarida Buxoroga olib ketilgan. Bug'doy, sulii, guruch eng xaridorgir tovarlar hisoblangan.

Paxta bozori ot bozori oldida joylashgan edi. Agar ilgari paxta faqat mahalliy to'quvchilar, qog'oz tayyorlovchilar talabini qondirgan bo'lsa, so'ngra ular to'xtovsiz uni hosilini oshirishga harakat qilganlar, keyinchalik paxta chetga eksport qilinadigan asosiy tovar bo'lib qolgan.

Tamaki yetishtirish ham vohaga katta daromad keltirgan. Mahalliy «oq tamaki» o'z davrida butun Buxoro xonligida eng mashhur hisoblanib, Turkistonga chiqarilgan. Tamaki nos (kadi) va tamaki yaprog'idan maxsus tayyorlanadigan nosvoy hamma yerda xarid qilingan. Tamaki chilimda chekilgan. Ustalar chilim va nosvoy idishini odatda qovoq (kodi)dan yoki misdan yasaganlar.

Qarshi vohasining aholisi bog'dorchilik mahsulotlaridan, ayniqsa, uzum yetishtirishga usta bo'lgan. Qarshida yetishtirilgan uzum butun Turkistonda nafaqat o'zining ajoyib ta'mi, shiradorligi vitaminlarga boyligi bilangina emas, balki hajmining kattaligi jihatidan ham mashhur bo'lgan. Uzum yetishtirish solig'i katta bo'lsa ham yaxshi daromad keltirgan. Uzum mahsulotining ko'p qismi meva ayni g'arq pishgan vaqtida ko'proq iste'mol qilingan, yarmiga yaqin qismini mayiz tayyorlashda ishlatganlar. Kishmish oftobda quritilgani «oftobi» va soyada quritilgani «soyaki» navlariga bo'lingan. Ayrim navlaridan (husayni, buvaki va hokazolar) shinni qilishgan.

XIX asr oxirlarida Qarshida qandolatchilik ham keng miqyosda rivojlandi. Qandolatchilar «obi novvot», «parvarda», «pechak qand», «pashmak», «lavzholva», «kunjut holva», «pista bodom holva», «taxir holva», «bodroq holva» kabi shirinliklarni tayyorlaganlar.

Qandolatchilar holva tayyorlashda o'rta asr holvagarlari kabi asosiy xomashyo sifatida shakardan tashqari yantoq qiyomidan ham samarali foydalanishgan. Bunday xom ashyolardan biri Qarshi cho'lida uchraydigan o'simlik-yantoq ildizidir. Yozning issiq kunlarida yantoqning barg va poyalarida sarg'ish tusli yopishqoq suyuqlik paydo bo'ladi, kechqurun havo harorati pasaygach, o'sha modda qotib ko'knor urug'iga o'xshash donachalariga aylanib qoladi. Ana shu «yantoq qandi»ni to'plash uchun yantoqning tagiga dasturxon yoki ro'molcha yozilib, shohlariga kaltakcha bilan urilgan. Shunda barg va poyalarda qotib qolgan «yantoq qandi» osongina tushgan va bu turantabin deb atalgan. Qiyom tayyorlashdan oldin aralashib qolgan barg va shoxchalardan elab tozalangan. Bu ishlarning hammasi yoz faslining oxirgi oylarida, ya'ni avgust oyining oxiri-sentyabrning boshlarida erta saharda, asosan havo harorati bir oz pasaygan paytda amalga oshirilgan. Yantoq qandi o'ziga xos shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan.

Qarshi holvagarlari tavsiyasi asosida tayyorlangan bag'loba, qandolat, dona sho'rak kabi holva turlari mashhur bo'lgan. Ayniqsa, shakar tabindan yog' va ziravorlar qo'shib, nok, olma, o'rik, gilos, qaroli (olxo'ri), uzum mevalaridan tayyorlanadigan holvalar juda ajoyib bo'lgan. Qandolatchilar mayiz, asal, shakar, turshak va hatto, shifobaxsh salqin ichimliklar ham tayyorlashgan. Suvga shakartabin solib tayyorlangan ichimlikka shifobaxsh hidli archa qo'shilgan.

Qashqadaryo vohasi iqtisodining yetakchi tarmog'i hunarmandchilik hisoblanib, uning to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik, duradgorlik, ko'nchilik bilan bog'liq turlari mavjud bo'lgan. Hunarmandchilikning

mazkur turlari asosan Qarshi, Shahrisabz, Kitob shaharlarida kuchli rivojlangan. Hunarmandchilikning XVIII-XIX asrlardagi yetakchi tarmog'i Qarshi shahrida to'qimachilik hisoblangan, bu tarmoq uchun zarur bo'lgan jun, paxta, ipak vohada ancha taraqqiy qilgan qishloq xo'jaligi orqali ta'minlab turilgan. Jundan ip tayyorlash an'anaviy hunarmandchilik dasht va tog' tumanlarida ham keng rivojlangan.

Voha shaharlarida tayyorlanadigan matolar ichida bo'zning salmog'i katta edi. U asosan, Shahrisabz, Qarshi shaharlarida tayyorlangan. Muarrix Mahmud ibn Valining ma'lumotiga ko'ra, Shahrisabzda ko'p miqdorda karbasbo'z (bo'yalmaydigan oq mato) to'qilgan⁴⁶. So'nggi davrga oid manbalarda ham Shahrisabzda bo'z tayyorlashga ixtisoslashgan guzarlar mavjud bo'lganligi aytib o'tiladi. Bo'z turli ranglarga bo'yalgan, unga naqsh bosib, yangi mato-chit hosil qilingan. Undan ayollar kiyim-kechaklari, to'shaklar va boshqa narsalar tayyorlaganlar. Elshunos olimi O.A. Suxarevaning ma'lumotlariga ko'ra, chitgarlar, asosan Shahrisabzning Rais guzarida istiqomat qilishgan.

Voha shaharlarida to'qilgan matolardan olacha deb atalgan, mato mashhur bo'lgan. Olacha Shahrisabzda ham ko'p miqdorda to'qilgan, lekin olacha tayyorlaydigan asosiy markaz Qarshi shahri hisoblangan. XIX asrning boshlarida bu matoni tayyorlashda qarshilik ustalariga teng keladigan ustalar butun xonlikda topilmagan. Shahrisabz va Qarshida ipak matolar tayyorlash ham ancha rivojlangan. Bosh kiyimlar ichida Shahrisabz do'ppisi o'ziga xosligi bilan ajralib turgan va mashhurroq bo'lgan.

Hunarmandchilikning yana bir yetakchi tarmoqlaridan biri bu-kulolchilik edi. Bu davrda voha kulolchiligida o'ziga xos badiiy uslub vujudga kelgan. Kulolchilikning asosiy markazlari Qarshi, Shahrisabz va Kitob shaharlari edi. O'rta Osiyo kulolchiligi ikkita asosiy turga: kosagarlik va ko'zagarlikka bo'linadi. Kosagarlik ustalar yaratgan turli hajmdagi tovoq, lagan, piyola va boshqa mahsulotlar turli naqshlar bilan bezatilgan va

sirlangan. Vohaning ko'zagar ustalari turli hajm va ko'rinishga ega bo'lgan ko'za, ko'zacha, xurmacha, turli tuvaksimon idishlar xum va xumchalar, hamda boshqa mahsulotlarni tayyorlaganlar. Mazkur mahsulotlar orqali keladigan daromad voha kulollarining mahalliy ehtiyojlarini to'la qondirgan.

Qarshida Buxoro bilan asosiy tranzit savdo yo'li joylashganligi sababli ham ko'proq xonlik markazi Buxoro shahri madaniyatining ta'siri ayniqsa sezilarli bo'lgan. O'z navbatida Qarshi savdogarlari ham Rossiya, Afg'oniston, Eron va Hindiston bilan ham samarali savdo aloqalarini o'rnatishgan. «Tarixiy to'plam»ga kirgan rus tadqiqotchisi P.Shubinskiyning «Buxoro ocherklari» nomli maqolasida (1892) Qarshiga Buxorodan paxta, ipak, kigiz, Rossiyadan chit, ipak matolar, parcha, teri, chinni, metall va Hindistondan gilam, hind kiseli, dori-darmon, parcha, hind murabbolari, Erondan ingliz chiti, ip-gazlama, Badaxshondan qimmatli la'li toshlar, Qoshg'ardan esa chinni, choy, ipak mahsulotlari keltirilganligi qayd etilgan⁴¹.

Shaharlarda qurol-yarog' ustalari ham faoliyat ko'rsatishgan. Masalan, XIX asrda fors mutaxassislari yordamida to'plar tayyorlangan. Vohada zargarlik ham taraqqiy etgan XIX asrda Qarshi, Shahrisabz ham Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent va Qo'qon shaharlari kabi O'rta Osiyoning yetakchi zargarlik markazlaridan biri bo'lgan.

Qashqadaryo vohasi, jumladan, Naxshab, Nasaf-Qarshi shahri hududidagi me'morchilik va arxeologiya yodgorliklari voha aholisining o'tmishi, kechmishi va qadimiy boy madaniyatidan guvohlik beradi. Mazkur shaharda ajdodlarimizning o'tmishda yaratgan bebaho san'at koshonalari o'zbek xalqini ulkan me'morchilik namunalari sifatida mohir xalq ustalarining aql-zakovati bilan uyg'unlashgan holda bunyod etilganligi tufayli bizning davrimizgacha yetib kelgan.

⁴¹ IIIy acap, 75-6er.

Qarshi shahrida turli davrlarda qurilgan me'morchilik yodgorliklari hozirgi kungacha shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Xuddi mana shu me'moriy yodgorliklarning bir qismi aynan, mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida qad ko'targan. Masalan, shulardan biri Charmgar mahallasida joylashgan, xalq orasida Qo'rg'oncha, Xonaqo nomi bilan mashhur bo'lgan masjid majmuasidir. Mazkur masjid Qarshi shahrining shimoliy-g'arbiy tomonida joylashgan. Masjid atrofidagi obidalar XIX-XX asrlardagi o'zbek me'morchilikning e'tiqod bilan bog'liq inshootlari jumlasiga kiradi. Majmua masjid, darvozaxona, sag'ana (qabr), hovuz va minoradan iborat bo'lgan. Majmuaning asosiy binosi masjidi an'anaviy me'moriy uslubda o'ymakor ustunlar, bezakli to'sin-yog'ochlar va g'ishtlardan bunyod etilgan. Hozirgi kunlarga saqlanib qolmagan majmuaning darvozaxonasi mahalla shimolida joylashgan. Darvozaxona chorg'ishtlardan tiklangan, uning joyi gumbazli qilib yopilgan. Masjidning g'arbida uch tarafidan g'ishtli devor bilan o'rab olingan qadimiy sag'ana saqlangan. Sag'ana qabrning boshiga qo'yilgan marmar lavhadagi arabiy yozuvda ko'rsatilishicha bu yerda taniqli olim, shayx Abdurahmon Naqshbandiy dafn etilgan⁴⁷.

Yurtimizda mustabid sho'ro tuzumi davrida Qarshidagi boshqa tarixiy obidalar singari bu majmua ham e'tiborsizlik tufayli tashlandiq holga kelib qolgan. Masjiddan o'sha davrlarda omborxona sifatida foydalanilgan. Majmua 1991 yilda ya'ni mustaqilligimiz ilk yillaridayoq qayta ta'mirdan chiqarilib, jome' masjidi maqomini oldi.

Tadqiq etilayotgan davrlarda Qarshi shahrida qad rostlagan tarixiy obidalardan yana biri bu-CHAQAR masjidi (1860) masjid Qarshining eski shahar qismida joylashgan.

Qarshi shahridagi Qo'rg'oncha mahallasi hududida joylashgan yodgorlik («Xonaqo» jome' masjidi deb ham ataladi) XIX asrning oxirida

⁴⁷ Исмоилов Н., Бўриев О. Кўрсатилган асар, 124-бет.

bunyod etilgan. Bu tarixiy obidaga yuz yildan oshgan bo'lsa-da, inshoot shu kungacha o'z tarovatini yo'qotgani yo'q. Obida cho'pkorilik uslubida bunyod etilgan, tashqi ayvon, ichki (namoz o'qiladigan joy) xonaning shift yog'ochlarida tasviriy bezaklar berilgan. Bino qurilishda va ichki bezaklarida ganchkor ustaning iste'dodi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Mehrob, silliq pardoqlangan devoriy qism binoni ancha tarovatli qilib ko'rsatadi.

Qarshi shahridagi tarixiy, me'moriy yodgorliklar o'zbek me'morchiligining noyob namunalaridan bo'lib, ularning har biri alohida bir tarixga egadir. Bu noyob obidalar O'zbekistondagi ko'plab tarixiy madaniy yodgorliklar kabi yuksalishu-ulug'vorlik davriga ham, tahqiru-tazyiqlarga ham, vayrongarchiliklarga ham duchor bo'lgan.

Qadimshunos olim M.Massonning yozishicha, XIX-XX asrlar chegarasida Qarshida 20 ta madrasa mavjud bo'lgan⁴⁸. Ammo hozirgacha ulardan Sharofboy, Xo'ja Abdulaziz, Qilichboy va Bekmir Qozoq madrasalarigina saqlanib qolgan, xolos.

Islom dini O'rta Osiyoga kirib kelgach Nasafdan juda ko'plab din peshvolari, hadisshunoslar, fiqhshunos, alloma-yu ulamolar voyaga yetishgan. Bu allomalar ichida tariximizning boy merosiga «Nasafiy» taxallusi ostida qalam tebratib katta hissasini qo'shgan, o'zining sara asarlari bilan dong taratgan ilm homiylari bisyordir. Bu ko'hna diyorda ko'plab «Nasafiy» yetishib chiqqan. Ularning har biri o'z davrining yetuk dorulg'alari bo'lgan. Zero, zamondosh shoirimiz Barot Boyqobilov ta'kidlab o'tganidek:

Nodir zotlar yurti ekan, bilsam Nasaf,

Ne asrdir boshi uzra toju-sharaf.

Kishilikning ummonida g'avvos kabi,

⁴⁸ Исмоилов Н., Бўриев О. Кўрсатилган асар, 129-бет.

Durlar sohib hamon shahri sadaf.

Biz ko'rib o'tilayotgan davrda, ya'ni XVIII asr asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan, ayrim «Nasafiy» lar to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz. Salohiddin Salohiy- XVIII asrda Qarshida yashab ijod qilgan shoir. O'zbek tilida «Gul va bulbul», fors tilida esa «Yusuf va Zulayho» kabi asarlarini yozgan. Amin bin Nurmuhammad Nasafiy- XVIII asr o'rtalarida yashab, ijod etgan qarshilik shoir⁴⁹. «Mazhar ul-musannifin» (Adiblar bayonida) nomli asar muallifi. 1759 yilda yozilgan mazkur asarida u Buxoro xonligi hududida yashab ijod etgan ko'plab shoir va adiblar haqida ma'lumotlar beradi. Jumladan, unda bir qancha qarshilik va kosonlik shoirlarning tarjimai-holi va ijodi to'g'risida muxtasar ma'lumotlar mavjud. Mullo Qurbon Xiromiy-mumtoz adabiyotimizning mashhur siymolaridan biri bo'lgan 1796 yili Kitob shahrining Charmgaron mahallasida tug'ilgan. 15 yoshidan keyin Buxoroga ketib, Miri Arab madrasasida tahsilini davom ettirdi. Ammo iqtisodiy qiyinchilik tufayli uni nihoyasiga yetkaza olmay Kitobga qaytib kelib, ota kasbi-charmgarlik, tabiblik, hattotlik bilan shug'ullanadi.

Xiromiy mumtoz adabiyotimizning Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Bedil, Zebuniso singari ulkan san'atkorlari ijodidan bahramand bo'lgan, ularning g'azallariga muxammaslar bog'lagan. O'z zamondoshlari-Shavqiy Kattaqo'rg'oniy, Xoziq, Volalar bilan yaqin ijodiy aloqalar o'rnatgan.

Xiromiy dostonnavis shoir sifatida ham nom qoldirgan. Uning «CHor darvesh» (1834), «To'tinoma» (1854), «Ra'no va Zebo» (1856), «Yusuf va Zulayho» (1862) singari asarlari mashhur bo'lgan.

Xiromiy adabiy merosi salkam 30 ming misrani tashkil etadi.

Bugungi kunda Toshkent va Kitob shaharlaridagi ko'chalarga, Shahrisabz tumanidagi maktablardan biriga shoir nomi berilgan.

⁴⁹ Носир Мухаммад «Насаф ва Кеш алломалари». Тошкент, 2006 йил 86-бет.

Nisoriy Nasafiy-XIX asrda yashab, ijod etgan shoir. Hayoti va ijodiy faoliyat haqida ma'lumotlar kam. Voze Buxoriyning «Tuhfat ul ahbob fi tazkirat-il-ashob» asarida Nisoriy Nasafiy iste'dodli shoir sifatida ta'riflangan⁵⁰.

Nazar Muhammad An-Nasafiy-«Ta'rix Vali» nomli asar muallifi. 1834 yili yozilgan bu asarida u tasavvufning Qodiriya tariqati vakillari, ularning hayoti va karomatlari haqida hikoya qilgan, vafoti ta'riflarini she'riy yo'l bilan bayon etgan.

«Ta'rix Vali» asarining 1835 yilda ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi O'zFA Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar jamg'armasida saqlanmoqda⁵¹.

Qarshi shahrida o'tmishda o'ziga xos xattotlik maktabi shakllangan edi. Mavlono Soyiliy, Saidnazar Nasafiy, Arab Nasafiyalar shu maktabning yetakchi namoyondalaridan bo'lgan.

Xattot Arab Nasafiy nomini alohida qayd etish lozim. Arab Nasafiy ko'chirgan «Farhangi Zafango'ya va Jahonpo'ya» (Jahonni kezuvi va o'rnatuvchi) deb ataluvchi yetti qismdan iborat lug'atda 5170 so'zning ma'nosi izohlab berilgan. Qo'lyozmaning so'nggi yettinchi qismida 500 dan ortiq o'zbekcha so'zning lug'ati keltirilgan⁵².

Nasaflik xattot mulla Muhammad Amin ibn Mulla Muhammad ham yetuk qalamravlardan bo'lgan. U 1882 yilda ko'chirgan «Riyozan nasixin» hozirgi kunlarga qadar yaxshi saqlanib qolgan.

Saidnazar Nasafiy-Qarshi xattotlik maktabining yirik vakillaridan biri, XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan. U Inoyatullo Buxoriyning «Hoshiya»si, Yusuf Qorabog'iyning «Taxtal hoshiya» asari, Mullo Ahmadning «Hoshiyai qutbiya»si, Asomiddinning «Hoshiya al favodul ziyoia» singari asarlarini yuksak saviyada ko'chirgan.

⁵⁰ Носир Мухаммад. Кўрсатилган асар. 88-бет.

⁵² Равшанов П. Қарши тарихи. Янги аср авлоди. 2006. 550-бет.

«Markaziy Osiyo hattotlik san'ati tarixidan» asarida Saidnazar haqida jumladan shunday deyiladi: «qarshilik Saidnazar bilimli va kuchli kotiblardan bo'lib, ko'chirgan kitoblari o'quvchilarga dastur bo'lar edi» 53.

Tohira Nasafiy XIX asrning oxirlarida Qarshida tug'ilgan. Yoshligida yaxshi bilim olib, o'zi ham maktab ochgan. Mumttoz adabiyotni puxta o'rganib, g'azallar yozgan. XIX asrning oxiri-XX asrning boshlarida Buxoro va Farg'onaga safar qilib, mashhur o'zbek shoirlari bilan uchrashadi, mushoiralarda qatnashgan⁵⁴. U zullisonayn (ikki tilli) shoira bo'lib, o'zbek va tojik tillarida mahorat bilan she'rlar bitgan. Shoira hayotining so'nggi yillarida Termizda yashagan va shu yerda vafot etgan.

Yuqorida hayoti va ijod yo'li qisqa tahlil etilgan nasaflik allomalar nafaqat Qashqadaryo vohasi, balki, hozir Turon diyorining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy, mafkruaviy va ma'naviy tarixiy-badiiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishgan. Nasaf (Qarshi) yirik ilm-fan markazi hisoblangan. Agar qadimda, Kesh shahri «Ilm val adab qubbasi» deb nom qozongan bo'lsa, Nasaf shahri hadis va fiqh sohasida nafaqat Movarounnahrda, hatto uzoq olis yurtlari olimlari ham kelib fikrlashadigan, bahs-munozara yuritadigan «majlis-tadris» (dars yig'ini), xalqaro ilmiy kongresslar o'tkaziladigan shahar hisoblangan.

Xullas, Naxshab-Qarshi shahrida ilm-fan va badiiyat ancha ravnaq topib, Markaziy Osiyodagina emas, balki Sharq olamida ham o'z salohiyatiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turgan.

II BOB. XIX ASR IKKINCHI YARMI-XX ASR BOSHLARIDA QARSHI SHAHRI.

2.1. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi va Qarshi bekligida mustamlakachilarga qarshi ozodlik harakatlari.

XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklarida hukm surayotgan siyosiy, iqtisodiy parokandalik to'qimachilik sanoati mahsulotlari ortib va bu mahsulotlarini sotishga bozor izlab qolgan Rossiya imperiyasini e'tiborini torta boshladi. Xitoydan rus savdosi siqib chiqarilishi, Turkiya va Eronda Britaniya tovarlari oqib kelishi tufayli rus savdosining cheklanib qolishidan, ayniqsa rus ma'murlari sarosimaga tushib qolgan edi.

Ikkita yirik davlatning, ya'ni Buyuk Britaniya va Rossiyaning manfaati O'rta Osiyo xonliklari hududiga to'qnash kelgan bir sharoitda, Rossiya raqib davlatni dog'da qoldirish maqsadida, ko'zlagan yovuz maqsadi sari birinchi qadam tashladi.

Biz yuqori boblarda ko'rib o'tganimizdek, imperiya ma'murlari ko'p asrlar mobaynida O'rta Osiyo xonliklariga o'lkani yaxshi o'rganish va turli strategik maqsadlarni ko'zlab o'z ayg'oqchiyu, sayyohlarini jo'natgan. Jumladan, XIX asrning 30 yillarida «Tatar mullasi-Mirzo Ja'far» nomi bilan Buxoro xonligi hududlariga tashrif buyurgan rus fuqarosi P.I.Demezov yoki XIX asrning 40 yillarida Buxoro xonligida bo'lib yer osti va konlarini o'rgangan K.F.Butenev, «Buxoro xonligining tafsiloti» asarining muallifi rus missioneri N.Xanikov va shunga o'xshash ko'plab rus fuqarolarining tashrifi kuzatiladi.

O'rta Osiyo xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini o'rganishda inglizlar ham ruslardan ortda qolmadi. XIX asrdan boshlab inglizlarning

«Ost indiya» kompaniyasi strategik ahamiyatga ega bo'lgan O'rta Osiyoga nisbatan qiziqishlari ortib bordi.

«Ost Indiya» kompaniyasining josuslarini O'rta Osiyoga tashriflari XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Jumladan, 1824 yil Buxoroda inglizlar vakili Murkfort tashrif buyuradi. 1831 yilda A.Byorns, garchi qismati achinarli bo'lib tugasada Stoddart va kapitan Konnolilar ham Buxoro xonligiga tashrif buyurgan edi.

CHor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklari hududiga istilochilik yurishlarini ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor edi. Eng muhimi, Rossiya O'rta Osiyoni qo'lga kiritish bilan o'zini Yevropadagi darz ketgan obro'yini va iqtisodiy qomatini tiklab olishga intildi. Chor Rossiyasini O'rta Osiyoni bosib olishi to'rt bosqichda davom etdi. Birinchi bosqich-1847-1864 yillar bo'lib, bu davrda chorizm armiyasi 1847 yili Sirdaryoning quyi oqimini bosib olib, Rais istehkomini qurdi. Ikkinchi bosqich; 1865-yildan 1868 yilgacha davom etib, bunda rus istilochilari quyidagi Buxoro xonligi hududiga kiruvchi shaharlarni: Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand va Kattaqo'rg'on (shahar)ni bosib oldilar. Uchinchi bosqich, 1873 yil fevraldan to 1879 yil avgust oyi davomida Xiva, Namanganni qo'lga kiritish bilan yakunlandi. To'rtinchi bosqich, 1880 yil oxiridan to 1885 yilgacha bo'lgan davrdir.

Shunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya faol bosqinchilik siyosatiga o'tdi va O'rta Osiyo ichkarisiga qarab katta qiyinchiliklar bilan kirib bordi.

Ko'rib o'tilayotgan davrda, Qarshi bekligi Buxoro amirligi hududiga kirganligi sababli, Buxoro amirligida kechgan siyosiy voqealar bilan bevosita bog'liq holda o'rganiladi.

Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqega ega edi.

XIX asrga kelib, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etardi⁵⁵. Uning chegaralari janubda Amudaryoning soʻl qirgʻogʻidan boshlanib, Sirdaryo sarhadlarida qozoq juzlari yerlariga tutashar edi. Amirlik Sharqda Pomir togʻlari, Gʻarbda Xiva xonligi chegaralarigacha boʻlgan hududni egallab turardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, Turkistonga qarashli Murgʻob daryosi vohalaridagi yerlar ham Buxoro amirligiga tobe edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng mashhur shahar sifatida eʼtirof etilgan Buxoroi sharif edi. Yirik shaharlardan⁵⁶ Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Gʻuzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Koʻlob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjoʻy shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi oʻrtasida, Jizzax, Oʻratepa va Xoʻjand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qoʻqon xonligi oʻrtasida tez-tez urushlar boʻlar, bu shaharlar qoʻldan-qoʻlga oʻtib turardi.

Buxoro amirligi hududiga kiruvchi ayrim yirik shaharlar 1867 yilda tashkil topgan Turkiston general gubernatorligi tarkibiga oʻtib ketdi.

Rus istilochilari tomonidan Toshkent fath qilingach, 1868 yil may oyida Fon Kaufman Jizzax sari yurishini davom ettirdi. Buxoro amirligining yirik shaharlaridan hisoblangan Jizzaxga barcha harbiy kuchlar 14 may kuni shay qilib qoʻyildi. Aynan, 1868 yil may oyida Buxoro amirligi bilan rus bosqinchilari oʻrtasida Zarafshon vodiysida toʻqnashuv yuz berdi. Rus bosqinchilari bilan toʻqnashuv natijasida amirlik qoʻshini uchraydi. Amir qoʻshinlarining asosiy qismi Zirabuloq adirlarida Kaufman qoʻshini tomonidan 1868 yil 21 iyunda tor-mor keltiriladi. Xuddi mana shu magʻlubiyat koʻplab bekliklarda norozilik kayfiyatini uygʻotib, mahalliy hukmdorlarni ruslarga nisbatan adovatini qoʻzgʻalishiga sabab boʻldi.

Buxoro amiri Muzaffarxon rus ma'murlari bilan muzokara olib borishga majbur bo'ldi, ana shu muzokara natijasida Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasida 1868 yil 1 iyulda Kaufman va amir Muzaffarxon imzo chekkan sulh shartnomasi imzolandi. Aynan shu shartnoma tufayli amir Muzaffarxon ko'plab majburiyatlarni o'z zimmasiga olish bilan bir qattorda, Samarqand va Kattaqo'rg'ondan ham voz kechishga majbur bo'lgan edi.

Buxoro amirligi hududiga «Tarixi nofeiy» asarining muallifi Muhammad Ali Boljuvoni yozganidek quyidagi bekliklar Chorjo'y, Karki, Kalif, Qarshi, Karmina, Nurota, Ziyovuddin, Xatirchi, G'uzor, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Chiroqchi, Jomchi va Sherobod, Boysun, Dehnav, Sariosiyo, Hisor, Qorategin, Darvoz, Boljuvon, Ko'lob ya'ni xatlon Qo'rg'ontepa, Kubodiyon⁵⁷ kiradi.

Buxoro amiri Muzaffarxonning taslimchilik siyosati ta'kidlab o'tilganidek, ko'plab bekliklarda norozilik harakatini keltirib chiqardi. Muzaffarxonning to'ng'ich o'g'li, taxt vorisi, G'uzor hokimi bo'lmish Abdumalik To'ra xuddi shunday norozilik harakatining asoschilaridan biri edi. Amir Muzaffarxondan norozi bo'lgan «g'azotchi»lar Abdumalik To'ra huzuriga, ya'ni G'uzorga yig'ila boshlaydi. Hisor, Sherobod, Denov, Ko'lob bekliklarida amir Muzaffar tomonidan qo'yilgan hokimlar ag'darilib, Abdumalik To'raga tarafdor kishilar tizginini qo'lga oladilar. Jumladan, Sherobodda qo'ng'irot qavmi amir qo'ygan Karimqulbiyni bekor qilib o'rniga Ostonaqulbiyni hokimlikka ko'taradilar.

Shahrisabz va Kitob bekliklari esa amir Muzaffar taxtga chiqqanini ikkinchi yiliyoq amirlikka bo'ysunmay qo'ygan edilar. Voqealar kechayotgan davrda (1867-1868) Shahrisabzda Hakimbekbiy, Kitobda Jo'rabek hokim edi. Abdumalik To'ra va uning tarafdorlarining g'azotga da'vat qilgan sa'y-harakatlari boshqa bekliklarda ham amirga qarshilik kayfiyatini kuchaytirdi.

⁵⁷ Мухаммад Али Болжувоний. «Тарихи нофеий». Т.,-2001, 32-бет.

Amir Muzaffardan yuz o'g'irgan Hakimbek va Jo'rabeklar Abdumalik To'raga xat yozib, ruslarga qarshi muqaddas jihod yo'lida u bilan birga bo'lishni, unga itoat etishlarini izhor etadilar. Vatan tuyg'usi Amir bilan nizoda bo'lgan beklarni ruslarga qarshi jang hozirligini ko'rayotgan uning o'g'li bilan ittifoqda bo'lishni taqozo etadi.

Amirning Zirabuloqdagi mag'lubiyati tufayli amirlik hududida boshboshdoqlik vujudga keladi. Taraflarning kuchlari va qurol-yarog'lari xususidagi ma'lumotlar tahlil qilinsa, rus qo'shini muvaffaqiyatining siri ochiladi. Buxoro qo'shinlari son jihatdan ortiq, ya'ni olti ming sarboz va 15 ming otliqdan iborat bo'lsa ham, ularning qurol-yarog'lari va harbiy anjomi ibtidoiy darajada edi⁵⁸. Rus piyoda va otliq qo'shinlarining umumiy soni 2 mingdan oshmasa ham, ularning biri saralangan, kasbi-kori urush bo'lgan harbiylar edilar. Orenburg, Ural kazaklari, liniya batalonlari, to'pchilar brigadasi jangovar harbiy malakaga ega va urush ko'rgan, tajribali askarlar hamda zobitlardan bo'lib, ularning ixtiyorida 14 to'p va raketa moslamasi bo'lgan⁵⁹. Urush taqdirini qilich emas, harbiy texnika hal qiladi. Rus qo'shinlarining Zirabuloqdagi g'alabasi shu jihatdan tabiiy edi. Bu voqealardan ogoh bo'lgan qarshilik shoir Xayoliy:

*Kelubdur ahli kofir suyi islom qasri qatl aylab,
Umid shuldir alar birlan ajoyib korzorim bor,
Agarchandi, yarog'u xiylai tadbirimiz yo'qtur.
Vale, o'zbek erurmiz, ko'ngluma ming turli orim bor*⁶⁰

deb yozgan edi.

1868 yilning 2 iyunida bo'lgan Zirabuloq jangi arafasida xonlikning Sharqiy hududida ruslarga qarshi kuchli harbiy ittifoq vujudga kelib, ular

⁶⁰ Равшанов О. Кўнглима минг турли орим бор, «Ёзувчи», 1997 йил 5 ноябр.

istilochilar tayanchi bo'lgan Samarqand garnizonini qamal qilishga ulgurgan edi.

«Zirabuloq mag'lubiyatidan so'ng,-deb yozadi D.N.Logofet,-go'yo qon to'kar urush xotima topgandek tuyular edi. Zeroki, qo'shinidan ajralgan amir bir to'da yaqin mulozimlari bilan qochib, jon saqlash payiga tushib qolgan edi.

Biroq jazavaga tushgan ruhoniylar qutqusi xalq ommasining kayfiyatini junbushga keltirdi. Oqibatda, ular Buxoro taxtining valiahdi Katta to'ra Abdumalikxon atrofida jamlana boshladilar. Amirdan norozi bo'lgan barcha unsurlar tezlik bilan birlashib, kuchli firqa tuzdilar. Ularga avvallari ham hech qachon amir hokimiyatini tan olmagan, mustaqil bo'lib kelgan, tog'lik bekliklari Shahrisabz va Hisor aholisi ham qo'shildi»⁶¹.

Abdumalik to'ra tarafdorlari G'uzorga bir necha ming kishi bo'lib yig'ilib, Hakimbek va Kitob hokimi Jo'rabeklarning birikuvi sababli, ruslarga qarshi jangga kirishadilar. Ular G'uzordan chiqib, Shahrisabz orqali Samarqandga yo'l oladilar.

Zirabuloq jangi davom etayotgan kunlarda Samarqanddagi ruslar garnizoniga hujum qilgan. Abdumalik to'ra, Jo'rabek, Bobobek va boshqa o'zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, qozoq qavmlari boshliqlarining 8 iyunga qadar urush harakatlarini davom ettirganliklarini alohida ta'kidlash lozim. Kaufman harbiy vazirga yo'llagan ma'lumotnomasida Samarqandni qamal qilgan shahrisabzliklarning 25 ming, Odil dodho boshliq Xitoy-qipchoqlarining 15 ming, Husanbek, Abdul G'afforbek va Umarbek rahbarlik qilgan samarqandlik, urgutlik, panjikentlik, naymanlik, turkman, qoraqalpoqliklarning adadi 15 ming atrofida bo'lib, jami 50 ming kishini tashkil etganligini juda oshirib ko'rsatadi⁶². Biroq Kaufman ham o'z yo'qotishlarini ham tan olib o'tadi.

⁶¹ Логофет Д.Н. Бухарские ханство под русским протекторатом. Том 1. СПб. 1911, 28-бет.

⁶² Равшанов П. Қарши тарихи. Янги аср авлоди. 2006. 561 бет.

Vatan taqdiri hal bo'layotgan damlarda, amirdagi sustkashlik, irodasizlik xonlikning mard, jasur farzandlariga xush kelmagan. G. A. Arandarenko, o'zi shu qarshiliklarning guvohi bo'lgan bo'lsada, lekin bu jarayondan ko'z yumadi⁶³. Holbuki, Qarshi, Shahrisabz va Kitob uchun istilochilar yana kamida ikki yilga yaqin zarbdor kuchlarini jangga tashlashga majbur bo'lgan edi. Buxoroda uzoq yillar yashagan, o'ta mustabidona qarashli D.N.Logofet, har holda, amir lashkarlari tor-mor etilgandan so'ng ham, istilochilarga qarshi mardonavor bosh ko'targan, Vatan ozodligi yo'lida hayotini tikkan jasur botir o'g'lonlar bo'lganligini istar-istamas tilga olib o'tgan.

Abdumalik to'ra qo'shiniga zo'rlik va zug'um emas, xohish va talab bilan jam bo'lgan vatanparvarlar, birgina o'zbeklar emas, tojiklar, qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlardan ham tarkib topgan edi. Abdumalik to'raning Qarshida katta obro'-e'tiborga ega bo'lganligini o'sha paytda yaratilgan, qarshilik shoir Xayoliy devonidan⁶⁴ ham ya'ni «Tarixi hazrat Shahzodai oliymaqom» degan g'azali orqali ham bilib olish mumkin. Shoir Xayoliy katta to'ra Abdumalikning Qarshiga tashrifini ko'tarinki ruh bilan ifoda etadi, jumladan:

*Ne xush yil bo'ldi bul yil, Qarshi uzra kamron kelmish,
Sayyid Hazrat Muzaffar o'g'li-shohbozi jahon kelmish.
Xayoliy valiahd Abdumalik to'raning Qarshiga kelishi tarixini:
Xayoliy omilig' birlan dedi ta'rifi Shahzodin,*

Ming ikki yuzu sakson uchda toji xisravon kelmish,- satrlarida ko'rsatgan.

⁶³ Ўша жойда

⁶⁴ Равшанов Олим. Кўнглима минг турли орим бор. «Ёзувчи», 1997 йил 5 ноябр.

1283 hijriy yil milodiy hisobda 1866-1867 yilga to'g'ri keladi. Abdumalik to'ra atrofida jam bo'layotgan vatanparvarlar rus bosqinchilariga qarshi jiddiy tayyorgarlik ko'rganlar.

Abdumalik to'raning lashkari yo'lga chiqqanda, Abdulazim Somiy («Tarixi salotini Mang'itiya») aytganidek, «gubernator keragicha qo'shini bilan Kattaqo'rg'onda Buxoro lashkariga qarshi turgan edi. Samarqandda rus qo'shinining uncha katta bo'lmagan qismi qolgan edi»⁶⁵.

Millatning shon-shuhrati hamda Buxoro amirligining asosiy shaharlaridan sanalgan Samarqandni rus istilochilaridan ozod qilish maqsadida Muzaffarning to'ng'ich o'g'li amirzoda Abdumalik to'ra (1848-1909) va erksevar beklar Jo'rabek, Bobobek hamda Kenesari Qosimovning o'g'li Sulton Sodiq o'zaro birikadilar. Ular Amir Temurning Oqsaroyida tantanali tarzda Katta to'ra nomi bilan mashhur bo'lgan amirzoda Abdumalikni amir deb e'lon qiladilar. Amir Muzaffarning mulozimlaridan Xudoyor, Abdulla, Ibrohim to'qsobolar va ko'pchilik ulamolar bu qarorni ma'qullab, amir Muzaffarning taxtdan tushirilganligini tan oladilar. Vatanparvar kuchlar Shahrisabzdan so'ng Qarshini egallaydilar. Karmana, Chiroqchi ham tez orada ular qo'lga o'tadi. Ruslar bilan kurashda chiniqqan qozoq xalqi farzandi Sulton Sodiqni amirzoda Abdumalik to'ra Karmana viloyati hokimi etib tayinlaydi. Amirga teskari kayfiyatda bo'lgan Kitob hokimi Jo'rabek va Shahrisabz hokimi Bobobeklar Abdumalik e'lon qilgan g'azot yo'lida barcha elparvar kuchlarni birlashtirishga harakat qiladilar.

Turkiston general-gubernatori fon Kaufman voqealar rivojini tashvish bilan kuzatib boradi. U sulhga ko'ra, Buxoroning ichki ishlariga aralasha olmas, shuning uchun qulay fursat va bahona izlar edi. 1868 yilning kuzida amir Muzaffarning amirlikning butun sharqiy qismini egallagan qo'zg'olonchilarga qarshi kurash uchun yordam so'rab qilgan murojaati fon

⁶⁵ Равшанов П. Кўрсатилган асар. 562-бет.

Kaufman uchun ayni muddao bo'ladi. Buxoroning bosib olingan hududlari hisobiga tashkil etilgan Zarafshon okrugi boshlig'i general Abramovga amirga yordam berish uchun barcha soralarini ko'rish topshiriladi. Ruslarni Buxoro ishlariga aralashishiga qonuniy tus berish uchun general Abramov 6 oktyabrda maxsus xitobnoma tayyorlatadi. Unda jumladan, bunday deyilgan edi: «Buxoro hukmdori bo'lish maqsadida», -deb yozilgan unda-Abdumalik to'ra Tangrini va o'zining buyuk payg'ambarini ham unutdi. Sotqinlarcha o'z otasi bo'lgan buyuk amirga qarshi qo'l ko'tarib kelmoqda»⁶⁶. Ana shunday riyokorlik bilan navbatdagi bosqinni niqoblagan general Abramov katta qo'shin bilan harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Qarshi ostonasida vatanparvarlar son va qurol-yarog' jihatidan ustun bo'lgan dushmanga qarshi qattiq jang qiladilar. Jo'rabek, Bobobek va Sulton Sodiq general Abramov qo'shini bilan jangda o'zlarini mohir sarkarda ekanliklarini namoyish etadilar. Ammo kuchlar teng emasligi darhol bilinadi. Abdumalik to'ra Shahrizabz tomon chekinadi. Ruslar bilan birga amir Muzaffar sarbozlari vatanparvarlar egallagan hududlarni birin-ketin qo'lga ola boshlaydilar. Abdumalik to'ra bilan Sulton Sodiq Xiva tomonga qochishga majbur bo'ladi. 1868 yil 22 dekabrda Xiva xonining mulozimlari Muhammad Niyoz devonbegi va shoir Ogahiy amirzoda Abdumalikni tantanali ravishda kutib olishadi. Xon esa uni ochiq yuz ila qarshilab, amirzodaga katta mulk va oyiga 1500 tilla maosh tayinlaydi. Muhammad Rahimxon II uning qiyofasida bosqinchilarga qarshi kurashgan elparvar hukmdorni ko'rsada, unga bevosita harbiy yordam ko'rsatishicha o'jiz edi. Shuning uchun ham Abdumalik Xivada ham uzoq muddat qololmay, Afg'oniston tomonga yo'l oladi. Qobulda ham unga izzat-ikrom ko'rsatiladi. Afg'on amiri Sheralixon amirzodaga xayrixoh bo'lsa-da, Angliya bilan yaqinlashib kelayotgan urushda Rossiyaning yordamiga ko'z tikkani uchun Abdumalik to'raga yordam bera olmaydi. Amirzoda so'nggi umidini

⁶⁶ Равшанов П. Ўша асар, 571-бет.

Qo'qonga bog'lagan bir paytda, Xudoyorxon o'z manfaatini ko'zlab, ruslar bilan o'chakishishni istamaydi. Abdumalik to'ra o'sha vaqtda dong'i ketgan o'zbek sarkardasi Yoqubbek huzuriga Qoshqarga borishga ahd qiladi. Qo'qon xonining sobiq lashkarboshisi Yoqubbek 1853 yildan beri rus bosqinchilariga qarshi kurashib, Oqmasjid, Chimkent va Toshkent mudofaalarida o'zini ko'rsatgan sarkarda edi. U 1865 yilda Qoshg'arni egallab, tarixga «Yettishahar davlati» nomi bilan kirgan mustaqil davlatni barpo qilgan zabardast hukmdor edi.

Turkiston vatanparvarlari umid ko'zi bilan qaragan Yetti shahar hukmdori undan panoh istab kelganlarga doimo yordam qo'lini cho'zgan. Abdumalik to'ra ham Qoshg'arda shunday izzat-hurmat ko'radi.

Yoqubbek huzuriga kelgan Abdumalikka u o'z qarindoshidek munosabatda bo'ladi. Yetti shahar hukmdori unga amir sifatida hurmat ko'rsatib, Yangihisor qal'asini Abdumalikning ixtiyoriga topshirdi. U Yoqubbekning yordamida Turkiya hukumati bilan aloqa bog'laydi. Qoshg'arga kelgan Angliya elchisi bilan ham uchrashadi. Amirzoda Buyuk Britaniya imperiyasidan yordam olib, Buxoroni ozod qilish uchun uzoq yillar davomida harakat qiladi. Hindistonning Kalkutta shahrida, so'ng Peshovarda yashaydi. Abdumalik to'ra 1885 yilda otasining betobligini eshitib, Buxoro taxtini egallashga yana bir bor urinib ko'radi.

Amirzoda Abdumalikka Afg'oniston amiri Abdurahmonxon va Angliya yordam berishga ahd qilishgan bo'lsa ham, turli sabablarga ko'ra, bu va'dalar amalga oshmay qoldi. Abdumalik to'ra 1909 yilda Peshovarda buyuk bir armon bilan bu dunyodan ko'z yumadi.

Kitob hokimi Jo'rabek va Shahrisabz hokimi Bobobek esa vatanparvarlik kurashini davom ettirib, Buxoro amiri Muzaffar va uning homiysi rus bosqinchilariga tahdid solib turadilar.

Shu tariqa, ikki yoqlama amir va ruslar bosqini girdobida qolgan Qarshi istilo etiladi. Amir Muzaffar bu shaharning bosib olinishida vosita hamda faol qatnashchi bo'ladi.

M.Ye.Masson o'zining «Qadim davrlar Qashqadaryoning quyi viloyati poytaxt shaharlari» (1973 y) risolasida Qarshi ostonasida ruslar bilan bo'lgan jang haqida ko'pgina fikrlar keltirib o'tadi. Jumladan, u shunday yozadi: «Bu jang 1868 yil 21 oktyabrida boshlanib, general-mayor Abramov boshqargan qism ikki kun davom etgan jangdan so'ng Qarshini egallaydi. Istilochilardan 11 jangchi o'ldirishadi, 4 ta yarador qilinadi. Qarshi qo'rg'oni darvozalarida ruslarning zambaragidan qolgan izlar uzoq vaqt saqlanib qoladi⁶⁷».

1868 yilning 27 oktyabrida Qarshini amir Muzaffar ixtiyoriga topshirish marosimi bo'lib o'tadi. Shundan so'ng istilochi qism Samarqandga qaytib ketadi.

Qarshi, nihoyat, o'zini o'nqlab, Buxoro xonligidagi yirik savdo hunarmandchilik markazi sifatida qariyb yarim asrga yaqin iqtisodiy-madaniy jihatdan taraqqiy qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holni M.Ye.Masson Buxoro xonligining harbiy harakatlar oqibatida Rossiya imperiyasining vassali maqomiga tushishi, 1870 yilning 14 avgustida Shahrisabz va Kitobning ruslar tomonidan bosib olinib, amir Muzaffarga topshirilishi bilan bog'laydi. O'sha davrda vujudga kelgan vaziyatdan savdo ishiga aloqador yirik boylar katta manfaat ko'radilar. Hunarmand-kosiblar hayotida esa deyarli o'zgarishlar bo'lmaydi.

Buxoro amirligi, uning asosiy shaharlari bo'lgan Buxoro, Qarshi va Shahrisabzda Chor Rossiyasiga qaramlikdan norozi kayfiyat kuchli bo'lgan. Ikkiyoqlama zulm amirlik hududidagi aholini ezib qo'ygan edi. O'sha davrdagi amaldagi har qanday soliqlar halqning ahvolini og'irlashtirib,

⁶⁷ Массон М.Е.. Столичные города в области Низовев Кашкадарьи с древнейших времен . «Фан», Т;1973.ст-66.

ko'pgina g'alayonlarning kelib chiqishiga asosiy sabablardan hisoblangan. XIX asrning 80-yillari o'rtalarida xonlikda 40 ta soliq turi amalda edi.

Rus istilochilaridan norozilik ifodasini she'rlarida kuylagan badiiy ijodiyot vakillaridan biri, XIX asrda Qarshida faoliyat ko'rsatgan fidoiy shoirlardan Xayoliy o'z iztirobini quyidagicha bitadi:

*Xudoyo, o'zing rahm et bizlara,
Hidoyat qilib boq bu kunda bizlara,
Berib jur'at, g'ayrat bizlara,
Karaming eshigin ochib bizlara.
Hama kofir ahlin qil o'zing sarnigun,
Solibon olar ko'nglig'a ming tugun,
O'zung daf'in aylab alarning bu kun,
Ki yuz qo'ymasin bizni sarig'a chun⁶⁸.*

Albatta, bu muqaddas zaminda shoir Xayoliyga o'xshash vatan ozodligi kuychilari, qalbidagi ona yurtga bo'lgan mehru-muhabbatini, g'animlarga esa cheksiz nafratini o'z ijodi orqali bayon etgan shoiru-allomalar ko'p bo'lgan. Bularning asosiy, bosh maqsadi-Ona Vatanni ozod, hur ko'rish edi.

Arxiv manbalarini ko'zdan kechirish mobaynida shu narsaga amin bo'ldikki, Qarshi va unga qarashli amloklarda mustamlakachilarga qarshi ko'plab harakatlar amalga oshirilgan. Masalan, Murodqul-qorovulbegi, Hamdam oqsoqol, Ahmad oqsoqol, Sherqul polvon⁶⁹ kabi yurt o'g'lonlari o'z yigitlari bilan jonbozlik ko'rsatganlari xalqimizda vatanparvarlik g'oyalari yuqori ekanligidan dalolat beradi.

⁶⁸ Равшанов О. Кўнглима минг турли орим бор. «Ёзувчи», 1997 йил 5 ноябр.

2.2.QARSHI XX ASR BOSHLARIDA.

Rossiya imperiyasi bosqini oqibatida hududi va nufuzining katta bir qismidan ajralgan Buxoro xonligi vassal maqomiga tushib qolgan edi. Yarim mutelik amir Muzaffarning siyosiy-iqtisodiy masalalarda bir qarorga kelishidagi imkoniyatlarini cheklab qo'ygan edi. Noilojlik, mustaqil ish tuta olmaslik amirning izzat-nafsiga tegsa-da, u ko'nglidagi gapni yuzaga chiqara olmasdi. 1871 yilning 15 mayida Turkiston general-gubernatori Kaufmanga yozgan xatida amir Muzaffar, «Sizning do'stingiz-bizning do'stimiz, sizning dushmanin-giz-bizning dushmanimiz» 70 deyishga majbur bo'lgan.

1873 yilning 24-sentyabrida Shahrizabz shahrida Buxoro bilan Rossiya o'rtasida, avvalgi, ya'ni 1868 yil 23 iyunda imzolangan shartnomadan ayrim farqlari bilan shartnoma tuziladi. Bu shartnomaning avvalgisidan farqi shunda ediki, endi Toshkentda amirning vakili doimiy faoliyat yuritardi. O'zaro vakilliklar bo'lishi hokim va vassal davlatlar munosabati yaxshilanib borayotgandek tasavvuf tug'ilishi lozim edi. Amalda esa bu «do'stona» tuzilgan shartnomadan naf yo'q edi. 1877 yilning 24 aprelida rus-turk urushi boshlanadi. Bu urush pinhona siyosatning ko'p jihatlarini yuzaga olib chiqadi. Rossiyaga qarshi urushga Buxoro ham tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bunda Angliya va Turkiyaning ta'siri katta edi. Amir Muzaffar 1877 yilning iyulida Qarshidan Buxoro hududiga 2500 yangi olingan otliq sarbozlarni joylashtiradi. Shahrizabzdan ham 1200 piyoda, 600 suvoriy jamlanadi. Hujum uchun qurol-aslaha, ot-ulov, o'q-dori zahira qilinadi.

Turkiston general-gubernatorining Buxoroda va uning bekliliklarida ayg'oqchilari ko'p bo'lganligi sababli amir Muzaffarxonning bu niyati unga ayon bo'lib qoladi. Turkiston general-gubernatori amir Muzaffarni qattiq ogohlantiradi va tahlikaga solib butun Buxoro amirligi hududini bosib

olishini uqtiradi. Shu bilan amir harbiy tayyorgarlikni to'xtatadi. Endi u xalq iborasi bilan aytganda «ikki kemaga umid bog'lab o'rta cho'kib qolmaslik» uchun Rossiya bilan munosabatni yaxshilash harakatiga tushib qoladi. Ikki o't o'rtasida qolgan amir sog'lig'ini yo'qotadi. 1880 yil boshlarida to'shakka mixlangan amir Muzaffar olamdan o'tsa, taxtni uning o'g'illaridan qaysi biri egallaydi, degan muammo Chor hukumatini bezovta qila boshladi.

Katta to'ra-Abdumalik bu vaqtda xorijda yashab turardi. U otasining kasalligini eshitib, Buxoroni olishga intiladi. Uni amirlikdagi ruhoniylar, o'zbek biylari va inglizlar qo'llab-quvvatlayotgan edi. Abdumalikdan tashqari, Buxoro taxtidan uning ikki ukasi ham umidvor bo'lib, kurashni qizitib yuborgandi.

1882 yilda Chor Rossiyasi tashqi ishlar vazirligi xasta amirga uning o'g'illaridan biri-Abdul Ahadni valiahd qilib tayinlashni tavsiya etadi. Abdul Ahad 1883 yilda Buxoro elchilari qatorida Sankt-Peterburgga borgan edi. Uning nomzodi podshoh Aleksandr III tomonidan ma'qullangan va bu haqda amir Muzaffarga rasmiy xat jo'natilgan edi⁷¹. Amir vafotidan so'ng taxt taloshi yuz bergudek bo'lsa, Abdul Ahadni rus quroli kuchi bilan himoya qilish rejalashtiriladi. Rus podshohi 1885 yilning 2-noyabrida Abdul Ahadning taxtiga chiqishi munosabati bilan telegramma yo'llab qutlar ekan, Samarqand viloyatida turgan rus qo'shini unga yordamga shay ekanligini ham alohida ta'kidlab o'tadi.

Abdumalik Buxoro tuprog'iga kirishga botina olmaydi. Muarrixlar e'tirof etganidek, Abdul Ahad Chor Rossiyasi qo'llab-quvvatlamaganida hokimiyatga kela olmasdi. Abdumalik to'ra ukasi Abdul Mo'min, ruhoniylar, beklar yordamida taxtni osonlik bilan qo'lga kiritgan bo'lur edi. Aleksandr III ga inglizlar qo'llab turgan, bir necha yil burun ruslarga qarshi kurashgan Katta to'radan ko'ra, o'z chizig'idan chiqmaydigan Abdul Ahad taxtga chiqqani afzal edi.

Abdul Ahad hukmronligi davrida soliq turlarining ko'pligi ham amirlikdagi xalqlarning turmush tarzi, iqtisodiy ahvoli ne chog'li azobli ekanligini anglash qiyin emas. Mazlum xalq XIX asrning oxirlari-XX asr boshlarida 40 turdagi soliqlarni to'lashga majbur etilgan. Bu soliq turlarini T.G.Tuxtametov o'z asarida quyidagicha ko'rsatib o'tadi: «Xiroj, zakot, aminona, Taxtajoy puli, tarozu puli, dallol puli, mirobona, boqich puli, chig'ir puli, labaki puli, jizya (amirlikda yashovchi yahudiylardan olingan), avarizot, qora cherik, farsax puli, Yaksara yoki qo'sh puli, Osiyo puli, hovli puli, objuvoz puli, xos puli, ojas puli, sanjit puli, chorbog' puli, chub puli, alaf puli, tarbuz puli, kema puli, muhrona, xizmatona, kafsana puli, vasiqa puli, hukmona, xatmona, taloqona, shodiyona (bola tug'ilganda), nikohona»⁷²lardir.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat juda og'ir edi. Bekliklarda norozilik kayfiyati oshkor bo'la boshlaydi. Boljuvon bekligida ko'tarilgan qo'zg'olon qon to'kish bilan xotimlanadi. Isyon boshlig'i Voss va uning safdoshlari Shahrisabzda qatl etiladi.

XX asrning boshlarida, Qarshi va Shahrisabz bekliliklarida ham xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Afsuski, bunda ham qo'zg'olonchi kuchlar yengiladi va qo'zg'olon rahbarlari hamda ishtirokchilari jazolanadi.

Qarshi bekligida valiahd sifatida Sayyid Olimxon hukmronligi o'zi e'tirof etib o'tganidek o'n ikki yil⁷³ davom etadi. Ana shu davr mobaynida u Qarshi bekligida sezilarli darajada o'zgarishlar qilish bilan birga xalqni qiynab kelayotgan soliq bobida ham yengilliklar yaratadi. Aholi sog'lig'i haqida ham g'amxo'rlik qilib, shifoxonalar, erkaklar va ayollar ambulatoriyalarini ishga tushiradi. Qarshi va Shahrisabzda 1916 yilda tibbiy muassasalar soni anchagina edi. Qarshi va Shahrisabzdagi shifoxonalarga yiliga 12 ming miqdorida mablag' ajratilardi. Shifokorlar, feldsherlar faqat ruslardan iborat edi. Rus do'xtiri amirlikdan yiliga 4 ming, feldsher esa

⁷² Тухтаметов Т.Г. Кўрсатилган асар, 74-бет.

⁷³ Саййид Олимхон «Бухоро халқининг ҳасрати тарихи». Т. «Фан», 1991 йил, 7-бет.

1750 so'm maosh olardi. Amirlik beklklardagi yirik shaharlarga pochta, telegraf idoralarini barpo etadi. Bu ishlar Qarshi bekligida XIX asrning so'nglari-XX asr boshlarida amalga oshirildi.

Sayyid Olimxon Qarshi bekligidagi hukmronligi davrida amalga oshirgan ko'pgina ijobiy ishlari to'g'risida o'zining «Buxoro xalqining hasrati tarixi» («Tarixi huzni milali Buxoro») asarida quyidagicha bayon qiladi: «Bu ojiz bandaning Nasaf viloyatidagi hukmronligi o'n ikki yil davom etdi. Bu muddat ichida mening hukumatim hamisha faqirparvar va g'aribnavozlikka intilardi, mazlumlarni zolimlardan asrab, haqni qaror toptirardi. Shunday qilib, mazkur viloyat aholisini o'zimdan xursandumamnun ettirardim»⁷⁴.

Sayyid Olimxon ushbu asarida Qarshida olib borilgan me'morchiligi xususida ham to'xtalib, jumladan quyidagilarni bitib qoldirgan. «Mazkur viloyatga (Qarshiga) yaqin joyga Qashqa degan sho'x daryo oqardi. Undan kambag'al beva-bechoralarning kechib o'tishida rohati buzilib, doimo g'am-tashvishda edilar. Aholining osoyishtaligini ko'zlab mazkur daryoga toshutemirdan bir ko'prik qurdirdim. Shu bilan yana boshqa bir qancha madrasa va ibodatxonalar qurib, bu borada anchagina yumushlarni yuzaga keltirdim»⁷⁵.

Manbalarda ko'rsatilishicha, XX asrning 10-yillarida, aniqrog'i 1912 yilda rus muhandisi Kovalskiy Sayyid Olimxondan Kogon-Qarshi temir yo'lini qurish roziligini oladi. Mazkur temir yo'l qurilishi 4 yil davom etadi. Temir yo'lni qurishda 7000 kishi qattiq mehnat qiladi. Qurilishga jalb qilingan ruslar soni 500 taga yaqin bo'lib, ular muhandislar, ish boshqaruvchilar sifatida qatnashgan. Og'ir mehnat mahalliy fuqarolar chekiga tushadi. Aslida, rus hukmdorlarining O'rta Osiyo xonliklaridagi «jonbozlik»lari Rossiya manfaatini ko'zlab qilinayotgan ishlar edi. Temir yo'llar qurilishidan ko'zlangan bosh maqsad O'rta Osiyo yer osti va

⁷⁴ Саййид Олимхон «Бухоро халқининг ҳасрати тарихи». Т. «Фан», 1991 йил, 7-бет.

⁷⁵ Ўша жойда.

mahalliy boyliklarni o'zlashtirish bilan birgalikda, o'zlariga majburan bo'ysundirilgan xalqlarni asoratda tutish, ya'ni norozilik harakatlari bo'lganda ularni kuch bilan bostirish maqsadida, bir so'z bilan aytganda, harbiy maqsadlar ko'zda tutilgan edi.

XX asrning birinchi choragi oxirlarida Buxoro amirligida 60 ming rus fuqarolari yashagan. Qarshi shahrida bu davrda 800 rus fuqarosi istiqomat qilgan⁷⁶. Qashqa vohasida bu davrda 500 ming nufus mavjud bo'lgan.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Qarshi shahrida Azim Sayod, Hotamboy, Bekmirqozoq, Saidqulboy, Mirbeka, Abduqahhor, Choriboy, Nur, Shermuhammad, Xoliqboy, Abdulazizxo'ja, Abdusamadboy, Eski Masjid kabi madrasa va masjidlar mavjud bo'lib, sho'rolar davrida turli tashkilotlarga ular idora sifatida berilgan⁷⁷.

Bu davrda Buxoro amirligi ma'muriy-hududiy jihatdan 27 beklikka bo'lingan edi. Har bir beklik amlokдорlik boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Masalan, Qarshi bekligi Qarshi, Fayzobod, Beshkent, Pattazan, Fazli, Qamashi, Jeynov, Kasbi, Maymanoq, Jumabozor, Koson, Parg'uza, Xonobod, Po'lati, Qorabog'⁷⁸ singari amlokдорlik hududlarini qamragan.

XX asr boshlarida Rossiyada yuzaga kelgan hokimiyat talashuvi, Chor hukumatini kuch bilan ag'darish harakati-yo'qsillar inqilobi nomini olgan davlat to'ntarishi bilan bog'liq kurashlar aks-sadosi Qarshining o'sishiga ham sabab bo'ldi. Amir sarbozlarini masxaralamoq, poytaxtdan amalga tayinlangan amaldorlarni behurmat qilish shu davrlarda avj oladi. Shahrisabzda tayyorlanayotgan isyonni qo'llab-quvvatlovchilar ham ko'payadi. G'alayon Chor qo'shinlari aralashuvidan amalga oshmay qoladi. Buxoro xonligining hamma bekliklarida ham notinchlik avj ola boshlagan.

Bu davrda Buxoro huukmdorlari ham o'zlarini bir qancha erkin his qila boshlaganliklarini D.N.Logofet alam bilan shunday yozgan «Qayd etish zarurki, avval boshda rus hokimiyatining mazlum etilgan mamlakatda

⁷⁶ Равшанов П. Қарши тарихи. Янги аср авлоди, 2006. 629-бет.

⁷⁷ ЎзРМДА.86-жамғарма, 1-рўйхат, 4773-иш, 15-варақ.

⁷⁸ Д.Н.Логофет. В Бухарское ханство. Т..1 спб.1911,249-бет.

Rossiya istilosini mustahkamlashga qaratilgan hamma talablari Buxoro hukumati tomonidan hech bir e'tiborsiz, zudlik bilan bajarilgan bo'lsa, keyingi vaqtlarda barcha masalalar benihoya ko'p yozishmalarga ko'milib, ahyonda esa samarasiz tugardi»⁷⁹.

Rossiya imperiyasi hukumati manfaatini ko'zda tutuvchi Samarqand-Termiz aloqa yo'li qurilishiga 170 ming so'm sarflanishi talab qilinar edi. Qo'shbegi bu sohadagi so'rovlarni paysalga soladi, yo'l qurilishi uchun soliq to'lashi kerak bo'lgan Kitob, Shahrisabz, G'uzor va Sherobod aholisining kambag'al ekanligini vaj qiladi. Oqibatda, Chor Rossiyasi harbiy vazirligi o'z hisobidan mablag' ajratishga majbur bo'ladi. 15 chaqirimlik Kogon-Buxoro temir yo'lini moliyalashtirish, Termiz, Karki va Chorjo'yda rus aholisini joylashtirish, Buxoro amirligiga kelmoqchi bo'lgan rus aholisiga joy berish masalalari yillar davomida cho'zilib kelayotgan masalalar edi. Qarshi, Shahrisabz va boshqa shaharlarda rus firmalarining paxta zavodlarini qurish g'oyalari ham yechimini topmay qolgan masalalar edi.

M.Ye.Masson e'tirof etganidek, Rossiya imperiyasi mustabidligi-ning oxirgi yillarida rus burjuaziyasi o'zining xususiy paxta zaxirasiga ega bo'lishi uchun Qarshi yerlarini qo'lga kiritish⁸⁰ payida bo'lgan. Amir bunga tish-tirnog'i bilan qarshi bo'lsa-da, harbiy vazirlik, hatto, podshohning o'zi bu ishga aralashar, oqibatda, eng unumdor yerlar egallab olinardi. Knyaz M.M.Andranikov podshohning qo'llashi bilan 1912 yilning 31 martida amir bilan majburan tuzilgan shartnomaga muvofiq, Kosonning shimoli-sharqidagi 25000 desyatina yerga 99 yil davomid egalik qilish huquqini qo'lga kiritadi. Davr o'zgarmaganda knyaz Qarshi yerlarida yana 105 ming desyatinasiga 2011 yilga qadar xo'jayinlik qilgan bo'lar edi. Dehqonning asosiy tirikchilik manbai bo'lgan unumdor yerlarni tortib olishda Anan'ev ham knyazdan qolishmagan.

⁷⁹ Логофет Д.Л. Бухарское ханство под русския проректоратом. Т..П спб, 1911, 171-стр.

1917 yil fevralida Rossiyada burjua-demokratik to'ntarishi amalga oshiriladi. Hokimiyatga kelgan vaqtli hukumat 4 martda Buxoroga maxsus noma yo'llab, Chor rejimi va'dalarini tan olishini bildiradi. Bu bilan vaqtli hukumat Rossiya imperiyasining mustabidlik siyosatini davom ettirajagina ayon qiladi. Sayyid amir Olimxon ham nomaga javoban Buxoro va Rossiya o'rtasida 1868 va 1875 yillarda tuzilgan shartnomaga sodiq ekanligini izhor etuvchi noma yo'llaydi.

«Oq podshoh»ning ag'darilishi Buxoro mulklarida ommaning ruhiyatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Qarshida 1917 yil martining oxirlarida dehqonlar norozilik harakati tashkiliy tus⁸¹ oladi. Amirning islohotlar qilish haqidagi va'dalari paysalga solinishi aholining ilg'or qismida, ziyolilarda ixtilofni kuchaytiradi.

Buxoro amirligi hududlarida bunday siyosiy harakatlarni yetishib kelishiga jadidchi-ziyolilar vakillarining ta'siri katta bo'lgan.

Tarixchi olim Ra'no Rajapovanning yozishicha, «Jadidlar mustamlakachilarga qarshi, o'z xalqining ozodligi va mustaqilligi uchun kurash g'oyasini o'rtaga tashlagan harakat mafkurasi asosini tayyorladilar»⁸².

XIX asr oxiri-XX asr boshida Rossiya imperiyasi asoratiga tushib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani uyg'otishga, xalqning ko'zini ma'rifat orqali ochishga harakat qilib jon fido etgan jadidchilik harakati namoyondalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lpon, Tavallolar va boshqalar tarix sahifalarida ozodlik fidoyilari sifatida mangu joy oladi.

Afsuski, jadidchilarning jonbozliklarini Buxoro amiri o'z vaqtida tushunib yetmaydi va shu bilan birgalikda ularga qarshi harakatlar qiladi. Amirning buyrug'i bilan 1919 yilda jadidchilik harakatining buyuk

⁸¹ Тухтаметов Т.Г.Русско-Бухарские отношения в конце XIX начале XX в.,-Т.: «Фан», 1966, 135-стр.

⁸² Истиқлолимизнинг тарихий илдиэлари, «Шарқ юлдузи», 1995, №-11,12,15-бет.

yo'lboshchilaridan biri, mashhur dramaturg, Mahmudxo'ja Behbudiy Qarshida qatl etiladi.

Keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy ozodlik harakatining faol boshchisi Mahmudxo'ja Behbudiyning yo'qotishga sho'rolarning ham qo'li bo'lgan. Ayni paytda sho'rolar xalqni amirga qarshi qo'yish istagida bo'lgan. Amirlik tuzumi ag'darilgach, 1922 yildan boshlab Qarshi shahri Behbudiy nomi bilan atalgan, ammo sho'rolar 1937 yil shaharni yana eski nomini tiklaganlar.

Bu esa xalqning norozilik harakatlariga sabab bo'ladi. Fayzulla Xo'jaevning ta'kidlashicha, amir mamlakatda 1500 kishini jadid sifatida qatl ettiradi⁸³. Shuningdek, Sadriddin Ayniyning yozishicha, poytaxt Eski Buxoro va G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako'l, Vang'ozi kabi atrof tumanlardan tashqari Karmana, Xatirchi, Chorjo'y, Karki, Qarshi Shahrisabz, Sherobod, Hisor bekliklarida ham minglab kishilar jadidlikda ayblanib amir tomonidan, nohaq o'ldirilgan⁸⁴.

1920 yilning avgustida Eski Chorjo'y, Eski Buxoro, Karmana, Shahrisabz, Xatirchi, Qarshi, G'uzor, Kitob va Ziyovuddin bekliklarida xonlik tuzumiga qarshi chiqishlar kuzatiladi.

1920 yilning 28 avgustida sho'rolar hukumati M.V.Frunzega amrlikka qarshi Buxoro-Samarqand guruhini hujumga tashlashga buyuradi. 29-30 avgust kunlari Qarshi, Karmana, Xatirchi sho'rolar qo'liga o'tadi. Dekabr oyida esa Kitob, Yakkabog', Chiroqchi bekliklari sho'rolar qo'liga o'tadi⁸⁵.

Sho'rolarning xalqqa yettkazgan aziyatlari va ularning xususiy mulklarga bo'lgan munosabatlarini arxiv hujjatlarida saqlanib qolgan ma'lumotlardan ham anglab yetsa bo'ladi. Masalan, arzimas 500 r evaziga ko'p chorva mollarini revkomissiya ixtiyoriga topshirilishi⁸⁶ yoki boshqa hatti-harakatlar sho'rolar hokimiyatining naqadar kuchli siyosat olib

⁸⁴ Ражабов Қ.Бухорога кизил армия босқини ва унга қарши кураш. Т.2002, 11-бет.

⁸⁵ Ўзбекистон МДА.46-фонд, 2-рўйхат, 10-иш, 6-варақ.

⁸⁶ Қашқадарё ВДА.51-фонд, 1-жилд, 1-рўйхат, 7-варақ.

borganligidan dalolatdir. Biz mavzudan chetlab ketishni lozim topmaganimiz uchun qolaversa tadqiqot ishimizning davriy chegarasi belgilab qo'yilgani bois shu yerda tadqiqot ishimizga xotima yasaymiz.

Shunday qilib, Qarshi shahri XX asrning 20 yillarida nafs yo'lida tobora quloqch yozayotgan, qizil saltanatning o'ljasiga aylandi.

XX asrning 20-yilidan Qarshi shahrining tarixida yangi bob boshlanadi va bu 70 yildan ziyod davrni qamrab olgan alohida mavzudir.

XULOSA

O'rganilgan mavzuning tarixiy manbalar, adabiyotlar va arxiv hujjatlari orqali o'rganish, ulardan olingan ma'lumotlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida umumiy yakun yasilib, bir qator xulosalarga kelindi. Mazkur xulosalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, XVIII asr o'rtalarida Buxoro xonligida yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyatlar oqibatida Qarshi shahri atrofida joylashgan va amirlikda kuchli mavqega ega bo'lgan mang'itlar sulolasi boshqaruv tizginini o'z qo'llariga oladi hamda Qarshi bekligida ham o'z boshqaruvini joriy etadi. Qarshi bekligi amlokдор oqsoqollik boshqaruvidan iborat edi;

Ikkinchidan, Mang'itlar hukmronligi davrida Qarshi bekligining amirlikda mavqei oshib, siyosiy va iqtisodiy jihatdan amirlikda ikkinchi shahar darajasiga yetadi;

Uchinchidan, Qarshi bekligi aholisining etnik tarkibi xilma-xil bo'lib, o'troq va yarim o'troq urug'lar yashagan. Qarshi bekligining Buxoro amirligini boshqa hududlar bilan bog'lovchi savdo yo'li ustida joylashganligi beklidagi iqtisodiy hayotga ijobiy ta'sir ko'rsatgan;

To'rtinchidan, Amirlikning barcha beklklarida bo'lgani kabi bu yerda ham dehqonchilikda mahsulot yetishtirish asosan qo'l mehnatiga asoslangan bo'lib, mehnat qurollarini oddiyligiga, keng tarmoqli sug'orish inshootlari katta mehnat va kuch talab etishiga qaramasdan, asrlar davomida to'plangan tajribalar hamda hosildor yerlarning mavjudligi sababli, bu soha mahsulotlari ichki bozorni to'liq ta'minlar va qisman tashqi bozorga ham chiqarilar edi;

Beshinchidan, Qishloq xo'jaligining yana bir muhim tarmog'i bo'lgan chorvachilik vohaning tog' va tog' oldi hududlarida, adirlar va dashtliklarda rivojlangan bo'lib, bu hududlarda yashovchi o'zbeklar va arablar qo'ychilik,

yilqichilik, tuyachilik, shuningdek qorako'l teri yetishtirishga ixtisoslashtirilgan xo'jalik turlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan;

Oltinchidan, XVIII asr ikkinchi yarmi –XX asr boshlarida ham Qarshi bekligida asriy-ijodiy an'analarni davom ettirgan, «Nasafiy» taxallusli allomalar samarali ijod qilishgan. Ularning nomlari nafaqat amirlikda, balki butun Sharq olamida ham ma'lum va mashhur bo'lgan;

Yettinchidan, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligining bir qancha hududlarini bosib olinishi, amir Muzaffarxonning qat'iyatsizligi va taslimchilik siyosati oqibatida Qarshi bekligida amirning to'ng'ich o'g'li Abdumalik To'ra boshchiligida milliy ozodlik harakati vujudga kelgan;

Sakkizinchidan, XX asr boshlarida Qarshi bekligida amalga oshirilgan qurilish ishlari, yo'l aloqasini tiklash, pochta-telegraf ishlari, savdo yo'llari, karvonsaroylar, uning bojxona tizimidagi faoliyati xususida o'zaro aloqa va savdo tarmoqlarini kengaytirishga imkon berdi, ijtimoiy ahamiyatga ega me'moriy binolar qurildi;

To'qqizinchidan, Qarshi bekligi tarixini o'rganish o'zbek davlatchiligi tarixining o'ziga xos jihatlarini, milliy xususiyatlarini siyosiy tahlil asosida o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Mazkur tadqiqot ishining yakunida ushbu muammo bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar bildirildi:

- respublikamiz viloyatlari tarixini o'rganish va yoritishga e'tiborni kuchaytirish, mutasaddi rahbarlar, ilmiy jamoatchiligi va o'lkashunoslik muzeylari faoliyatini oshirish zarur;

- viloyatlarda yetishgan allomalar, ma'rifatparvarlar, san'at arboblari, mutafakkirlarning nomlarini abadiylashtirishga ko'maklashish;

- Buxoro amirligi bekliliklari tarixiga doir ilmiy izlanishlar natijalari asosida ilmiy-ommabop monografiya va risolalar chop etish, ilmiy-amaliy anjumanlarni muntazam o'tkazib turish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

RO'YXATI:

1. .Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010.
2. .Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. T.: «O'zbekiston», 1999.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.: «O'zbekiston», 2007.
4. Абдуллаев Т. Каталог вшивок Узбекистана XIX-XX века.- Т.,1976.
5. Абдураимов М.А. Вопросы феодального землевладения и феодальной рент в письмах эмира Хайдара.-Т., 1961.
6. Абаза К. Завоевание Туркестана.-Спб., 1902.
7. Agzamova G.A. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'zbekiston shaharlari va shaharlar hayoti.Tarix.fan.dok.dis..-T.,2000.
8. Аминов Б.Б.Памятники эпиграфики Юга Узбекистана как исторический источник (XV-XX вв.) Автореф.дис.канд.ис.наук.- Т.,1998.
9. Бартольд В.В.К истории орошения Туркестана. Соч.в д.т.-М., 1965, Т-III.
10. Бартольд В.В.История Туркестана. Соч.-М.,1963.Т.II.
11. Борнс А.Путешествие из Оренбурга в Бухару.-М.,1975.
12. Бутенов К.Ф.Результат метеорологических наблюдений на пути из Оренбурга в Бухару во время пребывания в ней 1841-1849 гг,-Спб., 1843.
13. Вамбери Х. Путешествие по Средней Азии. Спб., 1865.
14. Вяткин В.А. Каршинский округ, организация в нем войска и события в период 1215-1217 (1800-1803) годов//Известия

- Среднеазиатского отделения Российского географического общества, Вп, VIII, -Т., 1928.
15. Гребнев А. Осада и штурм среднеазиатских крепостей и укрепленных пунктов.-Спб., 1886.
 16. Галкин М.Н. Краткие очерки Бухарского ханства.-Спб., 1890.
 17. Демезон П.И. Записка о Бухарском ханстве,-М., 1983.
 18. Захаров С.М. Собиржонов А. Қарши.-Т., 1978.
 19. Зимин Л.А. Нахшаб, Несеф, Карши. Их история и древности// В.В.Бартольд Туркестанские друзья, ученики и почитатели,-Т., 1927.
 20. Исомиддинов М., Сулаймонов Р.Еркурган.-Т., 1984.
 21. Исмоилов Н., Бўриев О. Қарши-Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри.-Қарши, 2006.
 22. Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского.-Спб., 1887.
 23. Костенко Л.Ф. Туркестанский край. В 3-х.т.-Спб., 1880.
 24. Кастане Ж.А. Археологические разведки в западных частях Бухары//Протокол Туркестанского кружка любителей археологии (ПТКЛа). Вп.4.Т., 1917.
 25. Кабанов С.К. Археологические разведки в верхней части долин Кашкадарьи//Тр.Института истории и археологии. Вп.7.-Т., 1955.
 26. Кабанов С.К. Нахшаб на рубеже древности и средневековья.-Т., 1977.
 27. Кочнев Б.Д. Раскопки и разведки в Каршинском оазисе// Археологические открытия 1976 года.-М., 1976.
 28. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским проректоратам.-Спб., 1873.

29. Литвинов Б. Карши//Туркестанские ведомости. 1910, №114-116.
30. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Т., 1990.
31. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару.- М., 1975.
32. Маев Н. Очерки Бухарского ханства.-Спб., 1879.
33. Маев Н. Город Карши//Туркестанские ведомости. 1879, №24-25.
34. Масальский В.И. Туркестанский край.-Спб., 1913.
35. Мавлонов Ў.М. Торгове и культурыне связи Кашкадарьинского оазиса в XVII-XIX вв. Автореф. дис. кан. ис. наук.-Т., 1994.
36. Маньковская Л.Ю. Неизвестные памятники XVI-XIX вв. в Кашкадарьинской области// Строительство и архитектура Узбекистана., 1969, №11.
37. Массон М.Е. Столичные города в области низовев Кашкадарьи с древнейших времен. Т.: «Фан», 1973.
38. Murodov A. Markaziy Osiyo hattotlik san'ati tarixidan. Т., 1971.
39. Mavlonov O'., Mahkamova D. Madaniy aloqalar va savdo yo'llari. Т.: «Akademiya», 2004.
40. Muhammad Ali Boljuvoni. Tarixi nofeiy. Т.: «Akademiya», 2001.
41. Nosir Muhammad. Nasaf va Kesh allomalari. Т., 2006.
42. Nasridinov Q. Qarshi qal'asi. Qarshi, 2006.
43. Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. Т., 1995.
44. Ravshanov P. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. Qarshi, 2005.
45. Ravshanov P. Qarshi tarixi. Т., 2006.
46. Rajabov Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash. Т., 2002.

47. Савелев П.С. Бухара в 1835 году.-Спб., 1836.
48. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. Т., 1958.
49. Сулаймонов Р.Х. Древний Нахшаб. Тошкент-Самарканд, 2000.
50. Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. Т.: «Fan», 1991.
51. Somiy Mirzo Abdulaziz. Tarixi salotini mang'itia.Т.,1962.
52. Теректев М.А.История завоевания Средний Азии. Т.I-III.- Спб., 1906.
53. Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX начале XX в.Т.: «Фан», 1966.
54. Туребеков М. Цитадел Еркургана. Т.,1982.
55. Таниева Г. Роль Каршниського вилоята политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата (вторая половина XVIII-первая половина XIX в).Т.,2008.
56. Xoliqova R.E. XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixi. Т.,2006.
57. Choriev A. Ochilov M. Qashqadaryo oblasti.Т., 1974.
58. Hasanov A. XVI-XIX asrlarda shaharsozlik va me'morchilik (Qashqadaryo misolida).Т.,2008.
59. O'zbekiston MDA. 46-fond, 2-ro'yxat, 10-ish, 6-varaq.
60. O'zbekiston MDAV.86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 4773-ish.
61. Qashqadaryo VDA.51-fond,1-jild, 1-ro'yxat, 7-varaq.
62. Qashqadaryo VDA.50-fond, 1-jild, 1-ro'yxat, 2-varaq.

QARSHI SHAHRI YILNOMASI (TADQIQ ETILGAN DAVRDA)

XVIII asr o'rtalari: mang'itlar hukmronligini o'rnatilishi.

1782 y.Vohaga qozoqlar hujumi.

1785 y.Amir Shohmurod tomonidan o'g'li Haydarni Qarshiga hokim qilib jo'natilishi.

XVIII asr oxiri.Sharofboy madrasasini qurilishi.

1842 y. Rus sayyohi N.Hanikovning Qarshida bo'lishi.

1863 y. Mejer sayyohi H.Vamberining Qarshiga tashrifi.

XIX asr. Nisoriy Nasafiy, Nazar Muhammad an-Nasafiy, Tohira Nasafiylar yashagan.

1868.21.X/ Abdumalik to'ra boshchiligidagi vatanparvarlar harakatining general-mayor Abramov tomonidan tor-mor etilishi.

XIX asr oxiri. Turli sayyohlar ma'lumotiga ko'ra Qarshida 60 ming kishi yashagan.

1896 y.Sayyid Olimxonning Qarshida hokim bo'lishi.

1909-1911 y.Xo'ja Abdulaziz va Bekmir Qozoq madrasalarini qurilishi.

1912 y.Kogon-Qarshi temir yo'li qurilishi.j

1919 y.Mahmudxo'ja Behbudiyning Qarshi shahrida o'ldirilishi.

1920 yil 28 avgust. Qarshi shahrida sho'rolar hokimiyatini o'rnatilishi.